

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

*На правах рукописи*  
**УДК**

**ЖУРАЕВ НУРБЕК ДЖУМАНАЗАРОВИЧ**

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОСТАТИСТИЧЕСКИЕ  
ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ ТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРУППЫ “ЯЗЫК И  
РЕЧЬ” АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**

**5A120102 - Лингвистика (английский язык)**

**ДИССЕРТАЦИЯ**

на соискание академической степени магистра

Работа рассмотрена  
и допускается к защите  
зав. кафедрой  
к.ф.н. доц. Галиева М.Р.  
« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2016

Научный руководитель  
д.ф. н. проф. Джусупов М.Д.

**Ташкент - 2016**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI  
UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
UDK

**JURAYEV NURBEK DJUMANAZAROVICH**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “TIL VA NUTQ” TEMATIK GURUHIGA  
KIRUVCHI MAQOLLARNING SEMANTIK VA LINGVOSTATISTIK  
XUSUSIYATLARI**

Lingvistika – 5A 120102 (ingliz tili)

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan  
**DISSERTATSIYA**

Ish ko‘rib chiqildi va  
himoyaga tavsiya etildi  
Kafedra mudiri  
f.f.n., dotsent M.R. Galieva  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 yil

Ilmiy rahbar:  
f.f.d.prof. Dzhusupov M.D.

---

**Toshkent– 2016**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

Fakultet: 3 ingliz tili  
Kafedra: Lingvistika va ingliz adabiyoti  
O‘quv yili: 2015-2016

Magistratura talabasi: Jurayev N.J.  
Ilmiy rahbar: Dzhusupov M.D.  
Mutaxassisligi 5A120102

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

**Mavzuning dolzarbligi:** Tadqiqot Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga oid maqollarning qiyosiy tahlilini o‘tkazishda bo‘lib, tadqiqot tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari hisoblanuvchi semantika va lingvostatistika sohalarida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Ishning maqsadi Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga oid maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlarini o‘rganib o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish.

**Ilmiy ishning obyekti va predmeti.** Tadqiqot obyekti Ingliz va O‘zbek tillaridagi maqollar bo‘lsa, uning **predmeti** “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik va lingvostatistik masalalari.

**Tadqiqot uslubiyati va uslublari:** til manbalarini qiyoslash tadqiqot metodi, lingvostatistik metod, komponent tahlili metodi va tavsiflash metodi qo‘llanildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi.** Mazkur dissertatsiyaning ilmiy yangiligi Ingliz va O‘zbek tilidagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollar tahlil qilindi va tavsiflandi. Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning o‘xshash va farqli xususiyatlari semantik va lingvostatistik qiyoslash planida ko‘rsatildi va tavsiflandi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi.** Tadqiqot natijalaridan umumiy tilshunoslik, leksikologiya, qiyosiy tilshunoslik kabi fan va kurslar bo‘yicha ma’ruza, hamda seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, dissertatsiyalar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yozishda foydalanish mumkin. Dissertatsiya natijalaridan ushbu fanlardan ma’ruza, hamda amaliy mashg‘ulot darslarini olib borishda foydalanish.

**Ish tuzilishi va tarkibi.** Mazkur dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** 1) ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollar “til va nutq” tematik guruhlariga klassifikatsiya qilindi. 2) ingliz va o‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga oid maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. 3) maqollarning universal va milliy-madaniy xususiyatlari aniqlandi;

**Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.** Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarga “til va nutq” tematik guruhi berildi va maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlari o‘rganilib o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Ilmiy ishni davomi sifatida kelgusida Ingliz xalq maqollariga ma’lum bir tematik guruhlar berish kelajakdagi buyuk maqsadlarimizdan biridir.

Ilmiy rahbar  
Magistratura talabasi

M.D. Dzhusupov f.f.d.prof.  
N.J. Jurayev

**MINISTRY OF THE HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
UZBEK STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

Faculty: III English Language  
Department: Linguistics and English Literature  
Year: 2015-2016

Master's Student: N.J. Jurayev  
Scientific advisor: M.D. Dzhusupov  
Specialty: 5A120102

**ANNOTATION OF MASTER'S DISSERTATION**

**The topicality** of the current investigation is conditioned by the complex, comprehensive approach from the position of modern linguistic trends such as comparative linguistics and linguoculturology.

**Aim and tasks of research:** to learn, analyze, investigate, classify, compare and provide the similarities and differences of semantic and linguistic statistic peculiarities of proverbs of the thematic group "language and speech" in the English and Uzbek languages.

**Subject and object of research:** proverbs and their semantic and linguistic statistic peculiarities.

**Methods of research:** comparative, linguistic statistic, componential descriptive analyses.

**The scientific novelty** of the work is defined by the fact that a new approach to proverbs of the English and Uzbek languages from the position of modern trends has been undertaken, the notion of proverbs of the thematic group "language and speech" has been applied, the comparative classification of semantic and linguistic statistic peculiarities of proverbs has been conducted.

**Practical value and degree of embed:** is defined by the fact that the framework of new trends makes a certain contribution to the collection of proverbs. Besides, the study of similarities and differences of proverbs in the English and Uzbek languages can be used in the courses on comparative linguistics and linguoculturology. It is doubtless that the results of the present paper can be helpful in elaboration of theoretical and practical lessons for University students.

**The structure of the dissertation** consists of introduction, three chapters, conclusion and the list of used literature.

**The results obtained:** 1) proverbs of thematic groups "language and speech" have been analyzed and classified in the English and Uzbek languages; 2) semantic peculiarities of proverbs of thematic group "language and speech" have been revealed in the English and Uzbek languages. 3) linguistic statistic peculiarities of proverbs related to the thematic group "language and speech" have been considered in the English and Uzbek languages. 4) the similarities and differences of proverbs in the English and Uzbek languages have been provided.

**General summary and recommendations:** A new comprehensive approach to the proverbs has been undertaken. The dissertation can be continued in the framework of modern linguistic trends such as comparative linguistics and linguoculturology.

Scientific advisor

Dzhusupov M.D.,D.S.,prof.

Master's student

N.J. Jurayev.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	5
I BOB. MAQOLLAR TILNING OBRAZLI KO'RINISHI: OBRAZLILIK VA IKKIPLANLILIK (MILLIY VA UMUMINSONIYLIK).....	12
1.1 Maqollar - xalq donoligi, madaniyati va tarixini aks ettirishi.....	12
1.2 Maqollar tilning ikkiplanlik ko'rinishi: milliy va umuminsoniylik uyg'unligi.	23
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	32
II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "TIL VA NUTQ" TEMATIK GURUHIGA KIRUVCHI MAQOLLARNING SEMANTIK BELGILARI.....	34
2.1 Ingliz tilidagi "til va nutq" tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik belgilari.....	34
2.2 O'zbek tilidagi "til va nutq" tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik belgilari.....	43
2.3 Ingliz va o'zbek tillaridagi "til va nutq" tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik qiyoslash analizi.....	55
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	67
III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "TIL VA NUTQ" TEMATIK GURUHIGA KIRUVCHI MAQOLLARNING LINGVOSTATISTIK XUSUSIYATLARI.....	70
3.1 Lingvistik statistika: tushunchasi va yo'nalishlari.....	70
3.2 Ingliz va O'zbek tillaridagi "til va nutq" tematik guruhiga kiruvchi maqollarning lingvostatistik qiyoslash-taqqoslash analizi.....	74
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	79
UMUMIY XULOSA.....	81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	85

## KIRISH

Ilmiy ishning **dolzarbligi** tadqiqot qilinayotgan muammoning Ingliz va O'zbek tillaridagi kam o'rganilganligidadir. Mustaqillik Respublika ma'muriyatiga zudlik bilan milliy mafkura asoslarini yaratishni kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, prezident I. A. Karimovning 1997-yil 31-avgust kuni Oliy Kengash noiblari huzurida 1 chaqiriq IX sessiyasida "Barkamol avlod - O'zbekiston kelajagining poydevori" mavzusidagi nutqida og'zaki ijod asarlarga milliy mafkura tamoyillari singdirilgan ma'naviy qadriyatlar sifatida bo'lish masalasiga alohida etibor berildi. 1997-yil 6-oktyabr kuni Respublika bo'yicha "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" qabul qilindi. Mazkur dastur matnida ham xalqimizning asrlar osha sayqallanib kelgan qadriyatlari yosh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashning manbalaridan biri sifatida ta'kidlab o'tilgan. [ I.A.Karimov 1997, 173]. Shuningdek, 1991-yildan buyon Navro'z bayramiga ajratilgan e'tibor, keyingi har yilning A. Temur, Oila, Ayollar bilan bog'lanishi ham og'zaki ijodimizga Davlat siyosati darajasida baho berilishini ta'minlab kelmoqda. 1998-yilning 13-yanvar kuni prezident I.A. Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligini nishonlash haqidagi farmonga imzo chekdilar. [ I.A.Karimov 1998, 76 ].

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy ma'naviyatga qanchalik yuqori baho berilayotganidan, madaniy merosimizga e'tibor keskin ijobiy tomonga o'zgarganidan dalolatdir. Shuning uchun ham har bir inson xalq og'zaki poetik ijodiga shunchaki dam olish, hordiq chiqarish obyekt sifatida emas, xalqning milliy ruhi aks etgan tarixiy hujjat sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirmog'i lozim.

Ma'lumki, 1993-yildan O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida adabiyot fani bo'yicha yangi dastur asosida o'quv mashg'ulotlari uyushtirilmoqda. 1999-yildan Respublika Vazirlar Mahkamasi "Kadrlar Tayyorlashning Milliy Dasturi" asosida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini ochish haqida qaror qabul qildi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etish natijasida xalq og'zaki poetik ijodi

kursini alohida nazariy kurs sifatida o'rganish masalasi amalga oshirilmoqda. [ I.A.Karimov 1998, 82 ].

Prezidentimizning “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi farmoni va Respublika Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori va boshqa me‘yoriy hujjatlar O‘zbekistonda ilm-fanni, xususan, tilshunoslikning ham taraqqiy qilishida muhim rol o‘ynamoqda. Bu borada I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, butun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini bunyod etayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir [ I.A.Karimov 1998,64 ].

Mazkur ilmiy ish Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga oid maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlarini o‘rganishning navbatdagi bosqichidir.

Shu bilan, mavzuning **dolzarbligi** shundaki, bir tarafdin zamonaviy tilshunoslikdagi “Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga oid maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlari” ni o‘rganishga qiziqish bo‘lsa, ikkinchi tarafdin, uning mukammal darajada o‘rganilmaganligidir. Ushbu mavzuni o‘rganishdagi ko‘rib chiqilgan savollar mavzuni ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan tadqiqot etishga qaratilgan.

Maqollar – xalq og‘zaki ijodi janrlarining biri bo‘lib, ularda ajdodlarning xayotiy tajribalari, orzu-intilishlari, davlat va jamiyatga munosabati, tarixiy-ruxiy xolati, falsafiy, etnik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo‘ladi. Bu esa, har bir yosh avlodga o'zbek xalq og'zaki poetik ijodini mutaxassis sifatida mukammal o'rganish mas'uliyatini yuklaydi. [ I.A.Karimov 1999, 82 ].

**O‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek xalq maqollariga muayyan tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to‘plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” xrestomatiya-lug‘atiga

o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimai ham berilgan. [T. Mirzayev, 2005. 4b.]

Shundan keyin birin-ketin olimlarning tilshunoslik va tarjimashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi: N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov (1924), Sh. Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O'.Azimov, O'. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. [T. Mirzayev, 2005. 4b.] M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyurov, R. Rasulov. "O'zbek xalq maqollari" (Tashkent, 1965 g.) to'plamida maqollar 30 tematik guruhga bo'lib ilmiy-badiiy tahlil qilingan. "Узбекские народные пословицы" [Tashkent, 1985 g.] to'plamida esa maqollar 35 tematik mavzu ostida tahlil qilingan. O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987-1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan "O'zbek xalq maqollari" o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi. Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedov "Ma'nolar maxzani" (Toshkent, 2001 y.) to'plamida 20 mingga yaqin maqolni etimologiyasi va xar xil variantlari alifbo tartibida joylashtirishgan. "O'zbek xalq maqollari" (T. Mirzayev, Toshkent, 2005 y.) to'plamida maqollar 70 tematik mavzuga bo'lingan. Qilingan ishlardan eng katta qadamni qo'yganlardan biri tuzuvchilar Karamatova K. M. va Karamatov H. S. tuzgan Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi Proverbs – Maqollar – Пословицы / Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b. hisoblanadi.

Ilmiy ishdan **maqsad** Ingliz va O'zbek tillaridagi "til va nutq" tematik guruhiga oid maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlarini o'rganib o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish.



**Tadqiqot vazifalari.** Ish oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Paremiologiya nazariyasini “til va nutq” tematik guruhida o‘rganish, tahlil qilish va tasvirlash;
2. Ingliz tilidagi “til va nutq” tematik guruhidagi maqollarni tavsiflash va tahlil qilish;
3. O‘zbek tilidagi “til va nutq” tematik guruhidagi maqollarni tavsiflash va tahlil qilish;
4. Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarni semantik qiyoslash;
5. Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarni lingvostatistik qiyoslash;
6. Bajarilgan tadqiqotlar natijasida maqollarning har ikkala tildagi aniqlangan o‘xshash va farqli jihatlarini keltirib o‘tish;

Ilmiy ishimizning **obyekti**: Ingliz va O‘zbek tillaridagi maqollar.

Ilmiy ishimizning **predmeti**: Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik va lingvosatistik masalalari.

**Ilmiy faraz** shundan iboratki, Ingliz va O‘zbek tillaridagi maqollarning semantik va lingvosatistik belgilari universalligi bilan birga ma’lum bir xalqqagina tegishli bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlari borligidadir. Qiyoslash tahlili keng, chuqur va ilmiy-obyektiv jihatdan qiyoslanayotgan tillarning o‘xshash va farqli tomonlarini ochib beradi.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

1. Til manbalarini qiyoslash tadqiqot metodi;
2. Lingvostatistik metod;
3. Komponent tahlili metodi;
4. Tavsiflash metodi;

Ushbu ilmiy ishda asosiy **tadqiqot manbalari** quyidagilar: Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале

русского, узбекского и казахского языков). Т.: Фан, 2006. – 298 с., Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс. (автореф. дисс) ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007., Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М.: Высшая школа, 1983. – 267 с., Джусупов М., Алибекова К., Мажитаева Ш. Специальная лексика и пословицы (лингвоконтрастивные и методические аспекты). Т.: Изд. Meriyus, 2013. – 139 с. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М.: Высшая школа. 1996. – 200 с. va Пермяков Г. Л. Пословицы и поговорки народов Востока. М.: ИВЛ, 1979. – 671 с. Maqollar to'plamiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchisida Ingliz tilida alifbo tartibida joylashtirilgan 800 maqolni ma'nosi, kelib chiqish tarixi va ularning talqinini o'z ichiga olgan English Proverbs Explained by Ronald Ridout & Clifford Witting. London: Pan Books Ltd., 1969. – 224 p. Ikkinchisida alifbo tartibida joylashtirilgan Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi taxminan 2000 ga yaqin maqolni o'z ichiga olgan Proverbs – Maqollar – Пословицы / Tuzuvchilar Karamatova K. M., Karamatov H. S. Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b. Uchinchisida 70 tematik guruhga bo'lingan taxminan 10000 ga yaqin maqolni o'zida mujassamlashtirgan “O'zbek xalq maqollari” / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ilm-fan va ta'limni rivojlantirish haqidagi farmon va qarorlari; Maqollar to'plamlari (English Proverbs Explained, Proverbs – Maqollar – Пословицы, O'zbek xalq maqollari); olimlarning umumiy va qiyosiy tilshunoslikdagi ko'plab izlanishlari (T. Mirzayev, H. Karomatov, K. Karomatova, V.Д.Аракин, В.П.Аникин, Г.М.Хошимов, В.И.Даль, Г.Л.Пермяков, А.А.Потебня, К.Алибекова, Ш.Мажитаева, Ю.В.Рождественский, В.Г.Гак, А.В.Кунин, П.У.Бакиров, А.А.Абдуазизов, Дж.Буранов, Д.У.Ашурова, М.И.Расулова, М.Д.Джусупов va boshqalar)

Ilmiy ishning **yangiligi** quyidagilardan iborat:

1. Ingliz tilidagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollar tahlil qilindi va tavsiflandi;
2. O‘zbek tilidagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollar tahlil qilindi va tavsiflandi;
3. Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning o‘xshash va farqli xususiyatlari semantik qiyoslash planida ko‘rsatildi va tavsiflandi;
4. Ingliz va O‘zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning o‘xshash va farqli xususiyatlari lingvostatistik qiyoslash planida ko‘rsatildi va tavsiflandi;

Ilmiy ishning **nazariy ahamiyati** - bu tilshunoslikda semantika va lingvistik statistika tushunchalariga qaratilgan bo‘lib, kelgusida qiyosiy lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan ilmiy ishlarda foydalanilishi mumkin (maqolalar, dissertatsiyalar va hokazolar).

Ilmiy ishning **amaliy ahamiyati** shundaki, mazkur dissertatsiyaning materiallari oliy o‘quv yurtida leksikologiyadan va qiyosiy tilshunoslikdan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ishlab chiqishda foydalanishdadir. Undan tashqari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va to‘plamlar tuzishda va kurs ishi va diplom ishlarida foydalanishda buyuk amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob va xulosadan tashkil topgan. Dissertatsiya oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

**Kirish** qismida ishning dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqotning obyekt va predmeti, tadqiqot farazi, tadqiqotda foydalanilgan metodlar, uning yangiligi, tadqiqot manbalari, tadqiqotning metodologik asoslari, nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

**Asosiy qismning 1-bobi** 2 ta paragrafdan iborat bo‘lib, unda asosan nazariy ma‘lumotlar: tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, maqollarning xalq donoligini, madaniyati va tarixini aks ettirishi, maqollarning ikkiplanliligi ya‘ni milliy va umuminsoniylik uyg‘unligi haqida ma‘lumot beriladi.

**Dissertatsiyaning 2- bobi 3** ta paragrafdan tashkil topgan. Unda Ingliz va O'zbek tillaridagi "til va nutq" tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik belgilari va muhokama qilinayotgan har ikkala tildagi qisoylash tahlili qilindi.

**Dissertatsiyaing 3-bobi 2** ta paragrafdan iborat bo'lib unda lingvistik statistika tushunchasi va yo'nalishlari haqida, Ingliz va O'zbek tillaridagi "til va nutq" tematik guruhiga kiruvchi maqollarning lingvistik belgilari hamda ularning lingvostatistik qiyoslash-taqqoslash tahlil qilishga harakat qilindi.

Ilmiy ishning **xulosa** qismida dissertatsiyadan ko'zda tutilgan barcha fikrlar mantiqiy jixatdan umumlashtirilib, natijalar yoritilgan.

## **I Bob. Maqollar tilning obrazli ko'rinishi: obrazlilik va ikkiplanlik (milliy va umuminsoniylik)**

### **1.1 Maqollar – xalq donoligini, madaniyati va tarixini aks ettirishi**

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi o'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar va dostonlardan iboratdir. Og'zaki ijodning ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turkiy xalqlarning an'anaviy dunyoqarashlariga borib taqaladi. Mazkur an'anaviy dunyoqarash O'rxun-Enasoy yozuvlari, "O'g'uznoma", Mahmud Qoshg'ariy tuzgan "Devonu lug'atit turk", Ahmad Yugnakiyning "Xibatul haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi adabiy yodgorliklari bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqillikka erishganidan so'ng xalq og'zaki ijodiga milliy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida munosibatda bo'lish boshlandi.

Mustaqillik Respublika ma'muriyatiga zudlik bilan milliy mafkura asoslarini yaratishni kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, prezident I. A. Karimovning 1997-yil 31-avgust kuni Oliy Kengash noiblari huzurida 1 chaqiriq 1X sessiyasida "Barkamol avlod-O'zbekiston kelajagining poydevori" mavzusidagi nutqida og'zaki ijod asarlarga milliy mafkura tamoyillari singdirilgan ma'naviy qadriyatlar sifatida bo'lish masalasiga alohida etibor berildi. 1997-yil 6-oktyabr kuni Respublika bo'yicha "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" qabul qilindi. Mazkur dastur matnida ham xalqimizning asrlar osha sayqallanib kelgan qadriyatlari yosh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashning manbalaridan biri sifatida ta'kidlab o'tilgan. [ I.A.Karimov 1997, 173]. Shuningdek, 1991-yildan buyon Navro'z bayramiga ajratilgan e'tibor, keyingi har yilning A. Temur, Oila, Ayollar bilan bog'lanishi ham og'zaki ijodimizga Davlat siyosati darajasida baho berilishini ta'minlab kelmoqda. 1998-yilning 13-yanvar kuni prezident I.A. Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligini nishonlash haqidagi farmonga imzo chekdilar. [ I.A.Karimov 1998, 76 ].

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy ma'naviyatga qanchalik yuqori baho berilayotganidan, madaniy merosimizga e'tibor keskin ijobiy tomonga o'zgarganidan dalolatdir. Shuning uchun ham har bir inson xalq og'zaki poetik ijodiga shunchaki dam olish, hordiq chiqarish ob'ekti sifatida emas, xalqning Milliy ruhi aks etgan tarixiy hujjat sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirmog'i lozim.

Ma'lumki, 1993-yildan O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida adabiyot fani bo'yicha yangi dastur asosida o'quv mashg'ulotlari uyushtirilmoqda. 1999-yildan Respublika Vazirlar Mahkamasi "Kadrlar Tayyorlashning Milliy Dasturi" asosida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ochish haqida qaror qabul qildi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etish natijasida xalq og'zaki poetik ijodi kursini alohida nazariy kurs sifatida o'rganish masalasi amalga oshirilmoqda. Bu esa, har bir yosh avlodga o'zbek xalq og'zaki poetik ijodini mutaxassis sifatida mukammal o'rganish mas'uliyatini yuklaydi. [ I.A.Karimov 1999, 82 ].

G'arbning mashhur olimlaridan biri Volfgan Mider maqollar haqida 50 dan ortiq kitob chop etgan va bu ilmiy asarlar boshqa tilshunoslar uchun qo'llanma bo'lib kelgan. U o'z tadqiqotlarida XVI va XVII arslar maqollar o'rganishning oltin davri deb qaraydi, chunki bunda maqollarning yirik to'plamlarini jamlashda tilshunoslar A. Krikmann va G. Vilson kabi tilshunoslar ishtirok etishgan. V. Mider o'z kitobida maqollarga quyidagicha ta'rif beradi: "Maqol – qisqa, xalqning donoligi va milliy qarashlari metaforik jihatdan tasvirlangan, esda tez saqlanadigan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan hikmatli so'zlardir" [Mieder V., 1998, 119p]. Olim yana shuni qo'shimcha qiladiki, maqollar barcha xalqlarda mavjuddir, lekin ba'zi bir xalqlar ijodida maqollarning soni ko'p foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, maqollar bir biriga qardosh xalqlar va madaniyatlar o'rtasida sayqallanadi, chunki ularni yaratilishi umumiy bir manbaga borib taqaladi.

O'zbek xalq maqollariga muayyan tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va

adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimai ham berilgan. [T. Mirzayev, 2005. 4b.] Shundan keyin birin-ketin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov (1924), Sh. Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B. Karimov (1939), Sh. Rizayev, O'.Azimov, O'. Xolmatov (1941), M. Afzalov, S. Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965, 1978), R. Jumaniyozov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A. Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyurov, R. Rasulov kabi olimlarning tilshunoslik va tarjtmashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. [T. Mirzayev, 2005. 4b.]

Hozirgi kunda dunyo xalqlarining qadriyatlarini uzoq tarixi ildizlari bilan bog'lanadi. Avvalambor, bu qadriyatlar xalq og'zaki ijodida o'z aksini topadi. Maqollar xalq donoligini aks ettiruvchi ma'naviy merosimizdir. Tilshunoslikning bir yo'nalishi sifatida maqol va matallar XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Paremiologiyada o'rganila boshladi. Paremiologiya grek tilidan olingan bo'lib, "xikmatli so'z, masal" degan ma'nolarni anglatadi. "Paremiologiya" atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Паремии - сложные знаки или комбинации знаков, непременно бытующих в живой разговорной речи и литературе (главное живой речи). Если паремия неизвестна говорящим, она не может служить знаком... Обычные (свободные или переменные) предложения не входят в систему языка. Это не элементы языка, а единицы речи. Они каждый раз производятся заново, импровизируются в зависимости от задачи момента на основе языка. В отличие от обычных (свободных) предложений клишированные паремии, представляемые предложениями, относятся к языку и являются его единицами" [Пермяков,1988, 209-210b]. Quyidagi ta'rifdan kelib chiqadiki, paremiya – bu murakkab belgilar bo'lib, doimiy nutqda

ishlatiladi. Agarda paremiya so'zlashuvchilarga noma'lum bo'lsa, u xolda belgi bo'la olmaydi. Oddiy gaplar, ya'ni mustaqil yoki o'zgaruvchan gaplar til sistemasiga kirmaydi. Ular til birligi emas, balki nutq birligidir. Chunki oddiy mustaqil gaplar ma'lum bir til asosida xolatdan kelib chiqqan xolda xar gal yangitdan yaratiladi. Oddiy mustaqil gaplardan farq qilgan xolda klishelangan paremiyalar gap ko'rinishida bo'lganligiga qaramasdan, til birligi hisoblanadi. Negaki u til foydalanuvchilari tomonidan tayyor xolda ishlatiladi.

Xalq og'zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san'atining boshqa turlaridan "musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Har bir xalqning orzu - idealini aks ettirgan boy og'zaki so'z san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqining ham og'zaki adabiyoti durdonalari mavjud. Xalqimiz tomonidan og'zaki yaratilib, xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayetgan badiiy asarlar o'zbek xalq og'zaki poetik ijodini tashkil etadi.

Og'zaki so'z san'ati "folklor" yoki "xalq og'zaki poetik ijodi" terminlari bilan ifodalanadi. Folklor termini birinchi marta XIX asr britaniyalik tadqiqotchi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib, u ikki so'zdan iborat-"folk" xalq, "lore" - bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni "Xalq donishmandligi" demakdir. Folklor - xalqaro termin. Lekin u turli mamlakatlarda turli ma'noda qo'llaniladi. Masalan, Angliya va AQShda xalq badiiy faoliyatining barcha turi "poetik ijod, musiqa, raqs, teatr, tasviriy va amaliy san'at), shuningdek irim-sirim, ishonch, e'tiqod va urf-odatlar shu termin bilan ataladi. Bizning o'zbek tili fanida esa bu termin aniqlashib bormoqda. "Folklor" deganda asosan xalq og'zaki ijodi tushuniladi. O'zbek folklorshunosligiga "folklor", "o'zbek folklori" terminlarini birinchi marta X. Zarif kiritdi (1934-35 yy). Xalq og'zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo'ldoshi, uning chinakam aks-sadosi bo'lib kelgan. U tarixiy voqealarni xalq ommasining tushunchasi nuqtai nazaridan va xalq pozitsiyasidan kelib chiqib, badiiy formalarda baholanadi. Xalq ijodini o'rganuvchi va tekshiruvchi fan "folklorshunoslik" deb yuritiladi. Xalq ijodi xalq amaliy san'atini,



xalq me'morchiligini, xalq og'zaki ijodini ifodalaydigan atamadir. Faqat har bir soha mutaxassisi folklor deganda o'z sohasini nazarda tutadi. Masalan, biz "Folklor" so'zini qo'llangan xalq og'zaki ijodini nazarda tutamiz. Xoreograf bu so'zni qo'llaganda xalq raqsini, musiqashunos esa xalq kuylarini nazarda tutadi.

Tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og'zaki ijodida qanday aks etganini o'rganadi. Etnograflarni xalqning urf-odatlarini qiziqtirsa, san'atshunoslar esa folklorlardagi musiqa, raqs, o'yin va boshqalarni o'rganadilar. Tilshunoslar xalq ijodi tilining lahja va dialektlari bilan, adabiyotshunoslar folklor asarlarining yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradi. Folklor asarlari xalq hayotini aks ettiradi, xalqning olam haqidagi tushunchalarini, uning didi va zavqini ijtimoiy, tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy estetik qarashlarni o'zida mujassamlashtiradi. Jamoalilik, og'zakilik, ananaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlilik kabilar folklorning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'ziga xos ijtimoiy mohiyat va badiiy sistemaga ega.

Folklorning og'zakiligi - xalq poetik og'zaki ijodi hali yozuv paydo bo'lmasdan ko'p zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida og'zaki yaratilishi uning shakl va mazmuniga tasir etmasdan qolmas edi. Folklorning an'anaviyligi shundaki, an'ana jamoaviy ijod mahsulidir. U o'zining tarixiy manbalariga ega. Folklor asarlarining dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan. Folklor asarlarining og'zaki yaratilishi va og'zaki ijro etilishi ularning o'zgarmas barqaror shakllari-an'analarni yuzaga keltirgan. Masalan: Maqol mazmuni nisbatan turg'un holatda saqlanadi. Binobarin, asosiy syujetlar, obrazlar sistemasi va badiiy tasvir vositalari an'anaga aylanadi hamda og'izdan-og'izga, avloddan avlodga o'tish jarayonida qisman o'zgaradi va bazi bir detallar qo'shiladi. Biroq asosiy manba an'ana bo'lib qolaveradi.

P.U.Bakirovning yozishicha, maqol va matallar ko'pgina ilmish ishlarning obyekt sifatida xizmat qilgan: "Научное исследование М.З.Садриддиновой (Садриддинова, 1984) посвящено лексике узбекских пословиц и поговорок. Б.А.Соатов (Соатов, 1990) определил жанровую специфику и поэтические

особенности узбекских народных пословиц. Х.Шарафиддинова (Шарафиддинова, 1986) обращала внимание на рифму и ее функционально-стилистические особенности в структуре узбекских народных пословиц. В научных исследованиях И.Бегмурадова (Бегмурадов, 1990), Р.А.Латыповой (Латыпова, 2003), Е.В.Ивановой (Иванова, 2003) фольклорные связи, в том числе пословицы и поговорки, рассматриваются в сопоставительном плане” [Бакиров, 2006. С.14].

Amerikalik tilshunos A.Dandes til bosqichlariga 7 xil ta’rif bergan. Uning fikricha maqollar:

1. Sodda va murakkab gap shakllariga ega.
2. Ma’nosi berilgan matnga bog’liq bo’lmaydi.
3. Aftorga ega emas.
4. Maqollar katta masalalarning qisqacha yechimidir.
5. Insonlarning barcha hayotiy tajribasining aksidir.
6. Ma’lum bir ta’lim va tarbiya tushunchalarini keng yoyib ko’rsatadi.
7. Qisqalik, ixchamlik va metaforalik xarakteriga ega. Bu ta’riflar maqollarning xususiyatlarini har tomonlama ochib bergan [Dandes, 1994, 51b]

M.D.Dzhusupovning ta’kidlashicha, “В сфере паремии отражается образное видение мира, национальная культура, традиции, привычки, обычаи каждого народа, что характерно для идиоматики, где часто наблюдается полный отрыв слов-компонентов, составляющих пословицу, от их словарного значения” [Джусупов, 2013. С.55].

Maqollar – xalq og’zaki ijodi janrlarining biri bo’lib, ularda ajdodlarning xayotiy tajribalari, orzu-intilishlari, davlat va jamiyatga munosabati, tarixiy-ruxiy xolati, falsafiy, etnik va estetik tuyg’ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan bo’ladi. Maqollar asrlar mobaynida sayqallanib, ixcham, lo’nda va sodda poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va turfa xilda bo’lib: Vatan, mehnat, til va nutq madaniyati, sevgi va muxabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida ham bo’lib, insonni oliyjanoblikka chorlaydi:

**“Well began is half done” “Yaxshi niyat yarim mol”, “Friends may meet, but mountains never” “Tog’ tog’ bilan uchrashmeydi, lekin odam odam bilan uchrashadi”** Maqollar ba’zan masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so’zlar, tanbeh, donishmandlar so’zi kabi nomlar bilan ham ataladi [Mirzayev, 2012, 46b].

Maqollar turli xalqlar nutqida uzoq davrlardan beri yashab kelmoqda. Insoniyat paydo bo’libdiki, u atrof-muhit, jamiyat, siyosat, tabiyat, iqtisodiyot va tibbiyot haqida fikr yuritadi, xulosa chiqaradi. Ana shu o’y-xayollar, xulosalar qisqa va lo’nda bo’lgan jumlar maqollar yasalishi uchun zamin xozirlaydi hamda ushbu maqollar bir kishi tomonidan emas, balki bir jamiyat va ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilinadi. Maqolning ma’nosi har doim ham uni tashkil qilayotgan so’zlarning ma’nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazlilik bilan bog’liq bo’ladi.

Maqollar uzoq davr jarayonida shakllanar ekan, ularda xalqning ajdodlardan avlodlarga o’tib kelgan donoligi o’z aksini topadi. Maqollar xalq ichida yashaydi va xalq ichida tirikdir. V.I.Dal maqollar haqida quyidagicha fikr yuritadi: “...должны сойтись народная премудрость с народной глупостью, ум с пошлостью, добро со злом, истина с ложью...”[В.И.Даль, 1984, С.136]. Xalq donoligi nodonligi bilan, ilm razillik bilan, ezgulik yovuzlik bilan, haqiqat yolg’on bilan va boshqa qarama-qarshi tushunchalar bir-biriga mos ravishda bo’lishi kerak. Masalan, **“First think, then speak”** ya’ni **“Avval o’yla, keyin so’yla”** ning ma’nosi dono xalqimizning sabr-qanoatliligi va naqadar oqilligining yaqqol dalilidir. Bundan ko’rinib turibdiki, V.I.Dal xalqda komillikni va butunlikni ko’radi hamda maqollar xalq hayoti, yashash tarzi, hissiyotlari va orzu-umidlari bilan uzviy bog’liqligini o’z izlanishlarida ko’rsatadi. Aynan xalqchilik xususiyati maqollarni aforizmlardan ajratib turadi. Aforizmlar ham maqollarday qisqalikka ega bo’lib, u soda gap yoki murakkab gap ko’rinishida bo’ladi. Aforizmlarni maqollardan farq qilib turadigan xususiyati – ularning aniq bir muallifga mansubligidir. Maqollar esa ma’lum bir xalqqa tegishli bo’lib, muallifi noma’lumdir. V.I.Dal ta’kidlaganidek, “Maqollar ortidan xalq tomon boorish

mumkin ekanligini hech kim rad eta olamydi”. Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig’isi, shodligi va sevinchi, qayg’usi va quvonchi, xalq xaqiqati, uni to’g’ri yo’lga eltuvchi vositadir. Bu bilan V.I.Dal xalqni ideallashtirmaydi. U maqollarda “xalqning hikmati bilan ahmoqliklari, ilm bilan razilliklari, yaxshilik bilan yomonliklari, haqiqat bilan yolg’onlari kabi qarama-qarshi xislatlar ham ifodalanishi kerak” deb hisoblaydi. Xalq asrlar mobaynida to’plangan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga me’ros qilib qoldiradi. **“Early to bed and early to rise makes a man healthy, wealthy and wise”** ya’ni **“Erta turganga Xudo risqini berarkan”**. Maqollar esa ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlar osha, xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og’izdan og’izga o’tib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq og’zaki ijodining boshqa janrlari singari, xar bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy madaniy xususiyatlari va uning yorqin qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me’yor va prinsiplarini, millatning ruhiy holatini to’liq ifodalaydi. Aynan xalqchilik xususiyati maqolning ichki strukturasi, ya’ni ma’nosining yo’q bo’lib ketishi mumkin emasligini isbotlaydi [Бакиров, 2006, 16b].

Maqollardagi hikmatlilik xususiyatida nasixat, odob-axloq, ijobiy yoki salbiy kabi ma’nolar aks etadi va bu xususiyat orqali nimanidir qilish mumkin yoki mumkin emasligi haqida xulosa chiqarish mumkin. P.U.Bakirov bu haqida shunday deydi: “Сентенциозность (нравоучительность) – специфическая особенность пословицы. Такой особенностью не характеризуются загадки, присловья, скороговорки, фразеологизмы” [Бакиров, 2006, С.21]. Maqollar yillar, asrlar davomida insonlarning aqli, kuzatuvchanligi, atrof-muhitga bo’lgan e’tibori, aql-farosati, ko’p asrlik hayotiy tajribasi va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayot, tabiat, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ahloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O’zi va O’zligi namoyon bo’lgan.

Shu sababli ham maqollar bag’oyat keng tarqalgan bo’lib, asrlar davomida jonli so’zlashuv va o’zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy

asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotlarda doimiy ravishda qo'llanilgan va xamon qo'llanilib kelmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan tilda mavjudlarining esa, ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning ba'zilari unutilib ham ketgan. Bunday xalq maqollari o'tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e'tiboridan chetda ekan degan xulosaga kelish ham noto'g'ri. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kuzatishlari, xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'noviy xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakily barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab, ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'z ma'nosiga alohida e'tibor berish kerak.

Jamoalilik - o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi mehnatkash xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan kollektiv ijod mahsulidir. Chunki folklor asarlari bir kishining ongli faoliyati natijasida yaratilmay, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga keladi. Malumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari jamoa tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. Ular o'z ijodida qabila va urug' odatlari, hohishlari, e'tiqodlari, tabiat bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qildilar. Demak, jamoaviy-ijodkor, ayni paytda ijrochi hamdir. Demak, folklor asarlarida jamoaviy ijod tushunchasi hech mahal individual ijod rolini inkor etmaydi. Zamon, xalq kuychisi "dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, latifago'y, askiyachi va boshqalar" jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni mexanik tarzda boshdan oxirigacha yod olmaydi, yani so'zma so'z yod olmaydi, balki unga ijodiy munosabatda bo'lib, o'zidan nimadir qo'shadi, boyitib boradi.

Maqollar o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy janrlaridan biridir. Ularda xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi o'z ifodasini topadi. Maqol - mantiqiy mushohada namunasi, odob va axloq qoidalarining o'zida jamuljam etgan dono gapdir. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, o'y-fikrlarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollarning talim-tarbiyaviy ahamiyati kuchli. U kishilarni

ogohlantiradi, maslahat beradi, mehnatni ulug'laydi, illatlarni hajv ostiga olib, fosh etadi. Maqollar ko'p jihatdan matallarga o'xshasa ham, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatga ega. Maqollar asosan o'z va ko'chma ma'nolarni ifodalaydi.

**Ilon chaqqan, ola arqondan qo'rqqar,**

**Bo'rining qulog'i ovda.**

Bu xildagi maqol va matallar ma'lum bir voqea, hodisa bilan bogliq holda aytiladi, aytilmoqchi bo'lgan fikr majoziy ma'noda, kinoya tarzida ifoda etiladi. Maqollarda o'xshatish, istiora, mubolag'a, qofiya ishlatilishi bu ularning shakl yaratuvchisidir. Maqollarda qofiyalanish ham o'ziga xosdir. Maqollar kompozitsion jihatdan nihoyatda sodda va ixcham. U ko'pincha sodda gapdan iborat bo'ladi

**Til-tig'dan o'tkir**

**A tongue is sharper than the knife.**

Maqollarda sifatlash, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari va omonim, antonim so'zlardan foydalanish uning badiiyligini oshiradi. Maqollardagi ko'pma'nolik va umumlashtiruvchanlik ham yuqoridagi xususiyat bilan uzviy bog'liq. P.U.Bakirov bu haqda shunday deydi: "Пословица как высказывание явление речи внешне воспроизводит обычное явление обозначает конкретный факт или конкретную ситуацию" [Бакиров, 2006, С.19].

**Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.**

Yuqoridagi maqolning o'z ma'nosi tabiat xodisasi bilan bog'liq, ya'ni shamol bo'lsa, daraxt barglari, shoxlari, uning uchi qimirlaydi. Lekin bu maqoldagi ko'chma ma'no o'z ma'nosidan tubdan farq qiladi. Ko'chma ma'noda biron bir narsa yuz bermasa, u haqda shunchaki gap tarqalmaydi degan mazmun mavjud. Demak, shamol bo'lmasa, daraxt qimirlash xolati umumlashtirilib, yuqoridagi maqolda o'z aksini topadi.

Kelib chiqish tarixi va ishlatilinish darajasi bo'yicha maqollar turli xalqlar nutqida uzoq davrlardan beri yashab kelmoqda. Insoniyat paydo bo'libdiki, u atrof olam, jamiyat, siyosat, tabiat, iqtisodiyot va tibbiyot haqida fikr yuritadi, xulosa chiqaradi. Ana shu o'y-hayollar, xulosalar qisqa va lo'nda bo'lgan jumlar

maqollar yasalishi uchun zamin xozirlaydi hamda ushbu maqollar bir kishi tomonidan emas, balki bir jamiyat va ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilinadi. Maqolning ma'nosi har doim ham uni tashkil qilayotgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazlilik bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan:

**Asli qora oqarmas, oqarsada bo'zarmas.**

Ya'ni qancha harakat qilmasin, yomon yaxshiga aylanib qolmaydi degan ma'no kelib chiqadi. Bunday holatni ingliz tilida ham uchratishimiz mumkin:

**Every dog has its own day.**

**Hali bizga ham omad kulib boqadi.**

Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma xulosasigina bo'lib qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi, u yoki bu masala ustidan chiqarilgan hukmdir. Maqol hajmi ixcham, kichik bo'lib, puxta ishlangan, keng ma'noni ifodalovchi obrazli nutq namunasidir. Maqolda ortiqcha gap so'z bo'lmaydi. Xar bir so'z aniq, o'z o'rnida ishlatilgan va ahamiyatli bo'lib, o'ziga xos ritm, ohang, kompozitsiyaga ega. Maqollar **tarixiylik** xususiyatiga ham egadir. Ular ko'pincha tarixiy voqea va hodisalar tasirida vujudga keladi. Shuning uchun ham xalq maqollarining g'oyaviy mazmunida xalq hayotining turli tomonlari o'z aksini topgan. Masalan, XIII asrda Chingizxon zulmiga juda ko'p maqol, naql, matal, va afsonalar yaratilgan.

**Bo'ji keldi, bo'ji keldi**

**Chingiz bilan Jo'ji keldi.**

Yuqorida keltirilgan maqolda Mo'g'ullar bosqini tufayli O'rta Osiyo xalqlarining aziyat chekkani, Chingizxon sulolasi hukmronligi davrida xalqning qanchalar qiynalganligini tasavvur qilish qiyin emas.

Umuman olganda, maqollar asrlar davomida xalqlarning noyob durdonalaridan biri bo'lib, til va badiiy ijodning teran mazmuniga ega xodisasi sifatida yuzaga kelgan. Ular xalq ma'naviyati, madaniyati va donoligi ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi va avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda o'tib

keladi. Ko'rishimiz mumkinki, maqollarda teran mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayot tajribalari natijalari mujassamlashgan.

## **1.2 Maqollar tilning ikkiplanlik ko'rinishida: milliy va umuminsoniylik uyg'unligi**

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O'zi va O'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda.

Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining — jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o'zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli to'planmay va o'rganilmay kelgan. Bundan xalq maqollari o'tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e'tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak.

M.D.Dzhusupovning yozishicha, “В настоящее время в мировом языкознании наряду с фольклористским материалом, собственно лингвистическими подходами к паремиям, возник совершенно новый подход — подход лингвокультурологический, который дает возможность увидеть



анализируемые единицы, как результат взаимодействия языка, культуры и мышления, описать их, обращая внимание на национально-специфические характеристики, что не всегда удается сделать в рамках традиционной системно-структурной парадигмы.” [Джусупов, 2013. С.46].

M.D.Dzhusupovning ta’kidlashicha, “Лингвокультурологический аспект описания пословиц может быть представлен как в монолингвальном плане, так и в плане межъязыкового сопоставления. Подобный анализ был предпринят О.А.Дмитриевой в исследовании <Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов> автореф. дис.... канд. филол. наук.” [Джусупов, 2013. С.47].

P.U.Bakirov maqollarga quyidagicha tarif berib o’tadi. “Пословицы – это жемчужина, житейская мудрость, духовное богатство и культурное наследие народа, проверенное на многовековом опыте” [Бакиров, 2006, С.3]. demak, maqollar milliy qadriyatlar merosi, xalq og’zaki ijodining durdonasi hisoblanadi. Bunga qo’shimcha qilib V.I.Dalning quyidagi so’zlarini keltirish mumkin: “Пословица... не сочиняется, а рождается сама” [Даль, 2000, С.752]. V.I.Dalning ushbu fikridan shuni xulosa qilish mumkinki, maqollar yozilmaydi, ularni xalq yaratadi, ya’ni avloddan avlodga og’zaki ravishda o’tadi. Bunga misol qilib, quyidagi maqollarni keltirsa bo’ladi:

**Walls have ears.**

**Devorning ham qulog’i bor.**

**Inson aqli bilan, Dono – naqli bilan.**

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so’z san’atkorlarining diqqat markazida bo’lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg’uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg’ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G’afur G’ulom va boshqa o’nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o’rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o’zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Tariximizda hatto

maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Qoshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning «Devoni lug'atit turk» asari bunga yorqin misol bo'la oladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Masalan, M. Qoshg'ariy ushbu asarida: “Kishi olasi ichtin, yilki olasi tashtin”, ya’ni “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” [<https://uz.wikipedia.org/wiki/maqol>].

A.A.Потебня maqollardagi aks ettirilgan holatga nisbatan ularni ikki turga ajratadi:

a) Aniq holat bildiruvchilar:

**So many men, so many opinions**

**Fikri ravshanning so'zi ravshan**

b) Umumiy holat bildiruvchilar:

**Think first and speak after words**

**Rost so'zni ayt, yolg'on so'zdan qayt.** [Потебня, 1976, 5166.].

So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so'zning o'nlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin. Masalan, maqol tarkibida kelishiga qarab birgina yomon so'zi yomonlikdan tashqari xudbinlik, tekinxo'riik, egrilik, insofsizlik, dushmanlik, qo'rqqoqlik, nodonlik, ilmsizlik, odobsizlik, baxillik, manmanlik, noshudlik, yolg'onchilik, sabrsizlik, bevafolik, ochko'zlik, nomussizlik, isrofgarchilik va hokazo ma'nolarni ifodalaydi. Bu — maqollarda so'zlarning ma'no imkoniyatlari naqadar kengligini ko'rsatadi.

Maqollar so'z san'ati mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'noda qo'llanishi mumkin. Shuning uchun ularda badiiy-tasviriy vositalarning xilma-xil shakllariga duch kelamiz. Ammo maqollarda o'xshatishning kam ishlatilishini, uning bu janr uchun xarakterli emasligini ham ko'ramiz.

Maqollarni o'xshatishlar bilan o'zgartirib qo'llasak, odatda, ular o'z maqollik xususiyatini yo'qotadi. Masalan, «Bulbul chamanni sevar, Odam — Vatanni» maqolini bulbul chamanni sevganday, odam vatanni sevar yoki «Dehqon bo'lsang, shudgor qil, Mulla bo'lsang, takror qil» maqolini dehqon shudgor qilganday, mulla bo'lsang takror qil deb ko'raylik-chi, butunlay ma'nosizlik yuzaga keladi. Keyingi paytlarda matbuot sahifalarida maqolning ana shu xususiyatini hisobga olmay, o'zgartirib qo'llash hollariga duch kelmoqdamiz. Masalan, «Ustoz otangdan ulug'» maqoli «Ustoz otangday ulug'» tarzida buzib qo'llanmoqda. Bunda otani kamsitish holati yo'q, shunday bo'lganda xalq «Ota rozi — xudo rozi» degan maqolni yaratmas edi. Bu yerda ustoz hurmatini bo'rttirish bor. Qolaversa, xalqda barcha odamzodning birinchi yakka-yagona ustози Oллоhdir, degan tushunchalar ham bor. Ikkinchidan, ustoz bilan ota tenglashtirib qo'yilsa, maqol mazmuni butunlay o'zgarib, xalq qarashlariga zid bo'lib qoladi. To'g'ri, ko'p variantlilik maqollar uchun xos hodisa. Ammo bu maqollarni istagancha o'zgartirish mumkin degani emas. Variantlilikning ham o'ziga xos tabiiy qonuniyatlari bor. Maqollar ketma-ket kelganda, biri ikkinchisini inkor etgandek, bir-biriga ziddek tuyulishi mumkin. Aslida esa qo'llanish vaziyatga qarab turli-tuman ma'no-mazmunni ifodalaganligini unutmash kerak. Quyidagi maqollarga e'tibor qiling:

**Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar**

**Ko'pni yomonlagan ko'milar.**

**Hisoblashgan do'st emas**

**Hisobli do'st ayrilmas.**

Keltirilgan maqollar bir-biriga zid emas. Yoki biri ikkinchisining buzilgan varianti ham emas. Ular o'z ma'nosiga ega mustaqil maqollardir:

**Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.**

Ma'lumki, xalqimiz marhumlarga alohida hurmat ko'rsatadi. Tirikligida qanchalik yomon bo'lishmasin, ular haqida yomon so'z aytishdan, garchi to'g'ri bo'lsa ham, tiyiladi. Maqolda esa bunday kishilarning azasiga ham kishilar istar-istamas kelishi, tilida aytmasa ham, dilida ularning aslida kim bo'lganini

unutmasligi o'z ifodasini topgan. Bunday qat'iy hukmda o'ziga xos ogohlantirish holati tasvirlangan.

### **Ko'pni yomonlagan ko'milar.**

Bu yerda halok bo'lar, el nazaridan qolar degan ma'no ifodalangan.

### **Hisoblashgan do'st emas.**

Ba'zi kishilar arzimas xizmatlarini ham do'stga minnat qilishadi. Bu yerda so'z o'sha haqda ketmoqda.

### **Hisobli do'st ayrilmas.**

Bu maqolda esa do'st kishi do'stning yaxshiliklarini unutmasligi, doimo yoddatutishi kerak, degan ma'no ifodalanmoqda.

Maqollarning jonli jarayonda, vaziyatga qarab qo'llanilishidan xos yana bir xususiyat kelib chiqadi, Ana shu qatorlar almashuvi, hatto so'zlar, iboralarning o'rin alnashuvida ham ma'no o'zgachaligi yuzaga keladi. Masalan, so'z isrofgar xotin haqida ketayotgan bo'lsa, maqolni «Limcha mulla — dinning sho'ri, Yomon xotin — unning sho'ri» shaklida, so'z chalasavod din vakili haqida ketayotgan bo'lsa, uni «Yomon xotin — unning sho'ri, Limcha mulla — dinning sho'ri» shaklida qo'llaydilar. Bunday holatlarda ma'no urg'usi, odatda, ikkinchi misraga tushadi.

В.П.Аникин va Ю.Г.Кругловlar xalq og'zaki ijodining alohida janri bo'lgan maqollar va matallarni batafsil taxlil qilib quyidagi aniqlikni kiritadilar: “Пословицей именуется краткое, устойчивое в речевом обиходе, ритмически образное изречение, обладающее способностью к многозначному употреблению в речи по принципу аналогии. К признакам, которые указаны в этом определении, - краткость, устойчивость, ритмичность, многозначность, очень часто присоединяют и другие. Про пословицы говорят также, что они обобщают социально-исторический и житейский бытовой опыт народа”. [В.П.Аникин, Ю.Г.Круглов, 1983, 116б.].

Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi xikmatli fikrlar majmuasidir. Maqollar-og'zaki ijodimizning kichik janrlari hisolanadi. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin

maqolga aylangan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo'lishi kerak. Tarixdan ma'lumki, azal-azaldan O'rta Osiyoda dehqonchilik, hunarmandlik va savdo-sotiqning rivoj topganining yaqqol isboti sifatida xalqimizda mehnatkash dehqon va hunarmandlar hayotini aks ettiruvchi maqollar ko'plab uchraydi. Jumladan, O'zbekistonda

**"Yer haydasang-kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda"**

maqoli mashhurdir. Ushbu maqolning juda ko'p qo'llanilishi Respublikamizda agrar-iqtisodiy masalalarga alohida e'tibor berilishidan dalolatdir. Chunki Ona diyorumizda "O'zbek Oq Oltini" deb tan olingan paxtamizning yurtdoshlarimiz hayotida o'rni beqiyosdir. Yuqorida bildirilgan fikrga qo'shimcha sifatida ushbu maqollarni keltirish joiz:

**Bir boshq don — Bir savat non.**

**O'lgan o'zbekning qo'ynida noni bor.**

Ko'rinib turibdiki, maqollardagi milliylik ruhining singib ketganligidan O'zbek xalqining nonni qanchalik e'zozlashini fikrimning isboti sifatida keltirib o'tgan bo'sam mubolag'a qilgan bo'lmayman. Ma'lum bo'ladiki, faqat hayot tajribasida tasdiqlangan vaziyatdagi maqol xalq orasida asrlab mangu yashaydi.

Maqollarda turmush hodisalari bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, or-nomus, sharm-hayo, ibo, g'urur, ilm-hunar, vafodorlik kabi ideal axloq namunalari maqullanib, nodonlik, qo'rqqoqlik, egrilik, yomonlik, umidsizlik, yolg'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik kabi yaramas illatlar qoralanadi. Bu esa o'zbek maqollarining g'oyaviy-tematik rang-barangligini ko'rsatadi.

Maqollar xushyor bo'lishga, do'stni dushmandan ajratishga, ota-onani, do'stlarni qadrlashga, kichiklarni izzat qilish, kattalarni hurmat qilishga o'rgatadi

**Xurmat qilsang, hurmat ko'rasan.**

**Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga**

**Yomon bilan yursang qolarsan uyatga.**

Maqollarda xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy normasi o'z ifodasini topadi. Maqol - mantiqiy mushohada namunasi, odob

va axloq qoidalarining o'zida jamuljam etgan dono gapdir. Ular qadimdan xalq donishmandligi, aql-idroki, o'y-fikrlarining ifodasi sifatida yashab kelganlar, sinalgan, turmush tasdig'idan o'tgan tushunchalarni ifodalab, unga qanot baxsh etganlar. Maqollarning talim-tarbiyaviy ahamiyati kuchli. U kishilarni ogohlantiradi, maslahat beradi, mehnatni ulug'laydi, illatlarni hajv ostiga olib, fosh etadi.

Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliylik ruhi singdirilgan, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Shuning uchun maqollar mangukka daxldordir. Maqollarning har qaysisi xar bir xalqning milliyliigi aks etgan o'ziga xos xususiyatga ega.

Fikrimga qo'shimcha sifatida mehnatning tagi rohat ekanligini isbotlovchi maqollardan keltirib o'tishni lozim deb topdim:

**Hunarmadning noni butun.**

**Dehqon — yer sultoni,**

**Cho'pon — yaylov sultoni.**

Agar insonning qo'lida hunari bo'lsa, mehnat qilsa, u hech qachon och qolmaydi, noni butun bo'ladi. Ikkinchi maqolda dehqonning o'z yerini sultoni sifatida tilga olingani bejizga emas, negaki ana shu ona yer dehqonni yediradi, ichtiradi va kiydiradi, ustini but, qornini to'q qiladi. Ona diyorimizda chorvachilikning ham qanchalik taraqqiy etganini cho'ponning yaylov sultoni sifatida aytilganidan bilishimiz mumkin.

Xalqimizning naqadar o'ylovli, mulohazali, oqil va dono ekanligini isbotlab beruvchi quyidagi maqolni keltirib o'tishni lozim deb topdim:

**Ko'p bilan kengash,**

**Ma'quliga yondash.**

Ya'ni bu maqol biror ish qilishdan oldin ko'pchilik bilan maslahatlashib, pishiq va puxta, xar tomonlama o'ylab chiqib, ular bergan firklar va foydali maslahatlarni inobatga olishga undaydi.

Ingliz tilidagi milliylik ruhi singan maqollarga to'xtaladigan bo'lsak:

**April showers bring May flowers.**

**Aprel yomg'irlari May gullarini keltiradi.**

Buyuk Britaniyada va Irlandiyada butun Aprel oyi davomida yomg'ir yog'adi. Bir kun davomida ob-havo bahorgi quyosh charaqlashidan qishning ayoq kuniga o'xshab qor guppillab yog'ishiga o'zgaradi. Bunaqangi yomg'irli kunlardan keyin mayda hamma yoq gullarga berkanib, chiroyli bo'lib qolishidan kelib chiqqan. Yuqoridagi maqol birinchi bo'lib 1886-tilda "March winds and April showers bring forth May flowers" tariqasida dunyoga kelgan. Keyinchalik qisqarib shunaqa ko'rinishga kelgan.

**One swallow does not make a summer.**

**Bitta qaldirg'och yoz keldagidan darak bermaydi.**

Tabiatdan ma'lumki, qaldirg'och ko'chib yuradigan qush, ya'ni Aprel oyida Buyuk Britaniya uchib kelib, uni Sentabr oyida boshqa issiq o'lkalarga tark etadi. Buyuk Britaniyada bahor oyi yoz oyiga qaraganda aniq o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Bu maqolning kelib chiqish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, mashhur Yunon faylasufi Aristotel tomonidan aytilganiga duch kelamiz. "One swallow does not make spring, nor does one fine day" ya'ni "Bitta qaldirg'och bahorni olib kelmaydi, va yana bir yaxshi kunni olib kelmaydi". Tanganing ikki tarafi bo'lganidek, ushbu maqolning ham tagida ikki xil ma'no bor. Birinchisi, yolg'iz qaldirg'och degani bu hali yoz degani emas, ikkinchisi birgina dalilning o'zi xulosa chiqarishga yetmasligi, uni asoslab berish uchun ko'proq dalillar kerak ekanligini anglatadi.

Ingliz xalq maqollaridan yana bir misol keltiradigan bo'lsak:

**Believe nothing of what you hear,**

**And only half of what you see.**

**Eshitganingni hech biriga ishonma,**

**Ko'rganingni yarmiga ishon.**

Bu maqolni turli g'iybatlarga e'tibor bermaslikka va inson ko'rgan narsalarining faqat yarmigagina ishonishni ta'kidlaydi. Hayotda oldindan

uyushtirilgan holatlar ko'p bo'ladi va shunday vaziyatlarda ushbu maqol qo'llaniladi.

Insonlar bu hayotdagi faktlarni o'z boricha qabul qilmasdan, dunyoga nisbatan munosabatlarni ham baholaydilar. Insonni insonligi ham uni o'rab turgan atrof-muhitga munosabatida mujassamlashadi. Maqollar inson uchun milliy va umuminsoniy ko'rinishda ma'no anglatadigan til birliklari hisoblanadi. Qadriyatlar borasida gap ketganda, inson uchun qimmatli, e'zozlanadigan, yetuk, beg'ubor, sof, toza, pok va muqaddas bo'lgan bilimlar jamlanmasiga aytiladi. Ularning asosiy xususiyati ham umuminsoniy xaraktarda bo'lishi mumkin, ham milliy xarakterda kuzatiladi. Masalan, umuminsoniy xarakterdagi maqollarga to'xtaladigan bo'lsak:

**First think, then speak.**

**Oldin o'yla, keyin so'yla.**

Yuqoridagi maqoldan ko'rinish turibdiki, xar bir xalq xar bir so'zni biroz mulohaza bilan, puxta o'ylab, rejalashtirib, behuda hech kimga ozor yetmasligiga ishonch hosil qilib keyin aytishni maslahat beradi.

Salomatlik borasidagi maqollarda ham ushbu firkning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkin:

**Good health is above wealth.**

**Sog'lik oltindan qimmat.**

Inson azal-azaldan o'z sog'ligini barcha narsadan ustunligini anglab yetishi uchun, ya'ni qancha boylik bo'lsa ham, u yo'qotgan sog'ligini qayta tiklay olmasligini ta'kidlash maqsadida ushbu maqol dunyoga kelgan.

Garchi do'stlik mavzusidagi maqollarda har bir xalqning o'ziga xos va mos belgilari ko'zga tashlansada, umuminsoniylik ruhi singdirilgan maqollar ham yetarlicha. Masalan:

**Friends may meet, but mountains never.**

**Tog'-tog' bilan uchrashmaydi, lekin odam odam bilan uchrashadi.**

Odam tug'ilganidan boshlab bir biriga uzviy bog'liq bo'ladi, hayot yo'llari bir necha marta bir biriga tutash keladi. Shuning uchun ham hech kim bir-biri bilan



yuzko'rmas bo'lib ketmasligi, iloji boricha hech kimning dilini og'ritmasligi kerak. Tog'lar esa, odamlardan farqli o'laroq, paydo bo'lganidan beri bir joyda doimiy turadi.

Ko'rishimiz mumkinki, maqollarning har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Shuning uchun maqollar mangulikka daxldordir. Maqollarning har qaysisi xar bir xalqning milliyliги aks etgan o'ziga xos xususiyatga bo'lish bilan birga umuminsoniylik ruhi singdirilgan maqollar ham yetarlicha.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqollar haqida har qancha so'z yuritsak ham, har qancha ilmiy ishlar qilsak ham ularning to'liq ma'no mazmunini ochib berish juda qiyin. Chunki ularni har qancha o'rgansak ham kamdir. Maqollar – xalq og'zaki ijodi janrlarining biri bo'lib, ularda ajdodlarning xayotiy tajribalari, orzu-intilishlari, davlat va jamiyatga munosabati, tarixiy-ruhiy xolati, falsafiy, etnik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan bo'ladi. Maqollar asrlar mobaynida sayqallanib, ixcham, lo'nda va sodda poetik shaklga kelgan. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir.

Maqollar - og'zaki ijodimizning kichik janrlari hisolanadi. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida birinchi aytilgan fikr asta-sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko'rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo'lishi kerak. Har bir maqol boshqasining o'rnini bosa olmaydi. Chunki bu ma'nolar maxzanining har bir satrini o'rni o'zgacha. Ular bir-birini takrorlamaydi, aksincha, bir-birini ma'nosini to'dirib, boyitib boradi.

Maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliylik ruhi singdirilgan, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi

fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan. Maqollar yillar, asrlar davomida insonlarning aqli, kuzatuvchanligi, atrof-muhitga bo'lgan e'tibori, aql-farosati, ko'p asrlik hayotiy tajribasi va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayot, tabiat, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, O'zi va O'zligi namoyon bo'lgan.

Shu sababli ham maqollar bag'oyat keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotlarda doimiy ravishda qo'llanilgan va xamon qo'llanilib kelmoqda. Maqollar asrlar davomida xalqlarning noyob durdonalaridan biri bo'lib, til va badiiy ijodning teran mazmuniga ega xodisasi sifatida yuzaga kelgan. Ular xalq donoligi, ma'naviyati va madaniyatining aksi sifatida namoyon bo'ladi va avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda o'tib keladi. Ko'ramizki, maqollarda chuqur mazmun, mehnatkash xalq donoligi, milliy anana, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashgan.

Shuning uchun maqollar mangulikka daxldordir. Insonlar bu hayotdagi faktlarni o'z boricha qabul qilmasdan, dunyoga nisbatan munosabatlarni ham baholaydilar. Insonni insonligi ham uni o'rab turgan atrof-muhitga munosabatida mujassamlashadi. Maqollardagi ikkiplanlilik inson uchun milliy va umuminsoniylik uyg'unligi ko'rinishida ma'no anglatadi desak mubolag'a bo'lmas degan umiddamiz.

## **II Bob. Ingliz va O'zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik belgilari**

### **2.1 Ingliz tilidagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik belgilari**

Ingliz tilidagi maqollarni to'plash va qiyoslash-chog'ishtirish ishlariga XIX asrning ikkinchi yarmidan katta e'tibor berila boshlandi. Bu borada qator ishlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: Гварджалидзе И. С. , и др. 500 английских пословиц и поговорок. М.: ИЛ, 1960. – 32с. Пословицы и поговорки на русском, латинском, французском, английском и немецком языках. Кемерово: МП РСФСР. Кемеров. гос. пед. ин-т , 1969. – 102 с. Гварджалидзе И. С. , Мchedlishvili Д. И. Английские пословицы и поговорки: Практическое пособие для лиц, изучающих английский язык. М.: Высшая школа, 1971. – 77с. Аракин В. Д. Сравнительная типология английского и русского языков. Л.: Просвещение, 1979. – 259 с. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М.: Высшая школа, 1983. – 267 с. Qilingan ishlardan eng katta qadamni qo'yganlardan biri tuzuvchilar Karamatova K. M. va Karamatov H. S. tuzgan Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi Proverbs – Maqollar – Пословицы / Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b. hisoblanadi.

Ushbu ilmiy ishda asosiy tadqiqot manbalari quyidagilar: Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). Т.: Фан, 2006. – 298 с., Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс. (автореф. дисс) ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007., Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М.: Высшая школа, 1983. – 267 с., Джусупов М., Алибекова К., Мажитаева Ш. Специальная лексика и пословицы (лингвоконтрастивные и методические аспекты). Т.: Изд. Meriyus,

2013. – 139 с. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М.: Высшая школа. 1996. – 200 с. va Пермяков Г. Л. Пословицы и поговорки народов Востока. М.: ИВЛ, 1979. – 671 с. Maqollar to'plamiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchisida Ingliz tilida alifbo tartibida joylashtirilgan 800 maqolni ma'nosi, kelib chiqish tarixi va ularning talqinini o'z ichiga olgan English Proverbs Explained by Ronald Ridout & Clifford Witting. London: Pan Books Ltd., 1969. – 224 p. Ikkinchisida alifbo tartibida joylashtirilgan Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi taxminan 2000 ga yaqin maqolni o'z ichiga olgan Proverbs – Maqollar – Пословицы / Tuzuvchilar Karamatova K. M., Karamatov H. S. Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b. Uchinchisida 70 tematik guruhga bo'lingan taxminan 10000 ga yaqin maqolni o'zida mujassamlashtirgan “O'zbek xalq maqollari” / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.

Ingliz tilidagi maqollar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, avvalambor ularning tarkibining xilma-xilligi Ingliz xalqining xar jabhasini qamrab oladi desak mubolag'aga yo'l qo'yilmagan bo'ladi.

Har bir xalqni maqollar xazinasiga ko'z tashlaydigan bo'lsak, avvalambor bu dur-u javohirlar ichida eng asosiylerden biri bo'lmish Vatan mavzusidagi maqollarga beixtiyor kishi ko'zi tushadi.

Ingliz tilidagi maqollarda **vatan** mavzusi o'ziga xos tarzda talqin qilinadi:

**Build one's house upon a rock.**

Kishi o'z uyini mustahkam qilib qurish uchun uni qoyani ustida qurishi lozimligi ta'kidlangan. Yuqoridagi maqoldan ham ko'rishimiz mumkinki, ingliz xalqi hayotida toshning o'rni naqadar yuqori ekanligini.

**An Englishman's house is his castle.**

Darhaqiqat, qanchalar katta yoki kichik bo'lmasin, inglizning uyi – uning mustahkam qal'asidir. Qal'aning qanchalar qo'riqlanishi, hattoki jonini berib bo'lsa ham uning daxlsizligini asrab qolishi tasvirlangan.

**East or west home is best.**

**There's no place like home.**

Inson qayerga bormasin, qanchalar uzoqlarga sayohat qilmasin, baribir o'z uyichalik hech qanday joy yo'qdir bu dunyoda. Yuqoridagi maqolda Sharqqa borsangiz ham, G'arbga borsangiz ham o'z uyingiz afzalligi yoritilgan.

**Charity begins at home.**

Savob, sahovat, mehr-muhabbat o'z uyingdan boshlanadi. Inson bolaligidan o'z oilasida ana shu hislatlarni o'rganib kamolotga yetsa, ulg'ayganidan keyin ham ana shu yaxshi fazilatlarini atrofidagi yor-do'stlariga qiladi.

Ingliz xalqi maqollarida **boylarga** xaqqoniy baho berish bilan birga **kambag'allarni** ham muhokama qilinadi:

**One law for the rich, and another for the poor.**

Ya'nikim, Ingliz xalqida boylarning jamiyat hayotida katta mavqe'ga egaligi, eng muhim qarorlar ular tomonidan chiqarilishi e'tirof etilgan. Kambag'allarga esa o'zlarining ijtimoiy darajasidan kelib chiqib muomala qilishlari ta'kidlangan.

**A thief passes for a gentleman when stealing has made him rich.**

Hattoki o'g'ri ham o'margan boyliklari uni boy qilganda uni o'z-o'zidan jentelmenga aylanishi, uning hech kim o'g'irlikdan boy bo'lganini anglamagandek go'yo...

**The poor man pays for all.**

Barcha ishni boshqalar qilsa ham, kambag'al hamma uchun to'laydi. Kaltak oxiri borib bechora nochorni boshida sinadi.

**Poor as a church mouse.**

Ingliz xalqi xristian diniga mansub bo'lganligi sababli ular cherkovga borib sig'inishadi, cherkovda ovqat pishirilmaydi, ovqatlanilmaydi. U yerda yashagan sichqon ovqat yo'qligidan juda ham ozg'in bo'adi va hech vaqosi yo'q bo'ladi.

Ingliz tilidagi maqollarda **ahmoqlikni** ustidan kulish bilan birga **donolikni** ham madh etishadi:

**A fool and his money are soon parted.**

Ahmoq va o'zini foydasini bilmagan odam qo'lidagi pulni ham uzoq ushlab turolmasligi; undan tashqari, unga berilgan imkoniyatlari ham qo'ldan chiqarishi ifodalangan.

**Fools rush in where angels fear to tread.**

Dono odam o'z qadamini o'ylab bosishi, ahmoq esa hattoki farishta ham qadam bosishga qo'rqadigan joyga ham shoshiladi. Ahmoq uchun ma'lum bir qonun yo'q degan ma'nolarda tasvirlangan.

**Wise men learn by other men's mistakes; fools by their own.**

Dono boshqalarning ahmoqona o'zini tutishlaridan kerakli xulosa chiqarib ularni qaytarmaslikka xarakat qiladi, faqat ahmoqgina qilgan xatosini qayta-qayta qilib aziyat chekib yuradi.

**He who is born a fool is never cured.**

Ahmoq bo'lib tug'ilgan odam hattoki umrini oxirigacha ham ahmoq bo'lib o'tarkan.

**Wisdom is the wealth of the wise.**

Aql dononing eng bebaho boyligini yuqoridagi maqolda ko'rishimiz mumkin. Zeroki, dono odam o'z aql-idrokigagina suyana oladi.

**No wisdom like silence.**

Sukutdan ortiq donolik yo'qligini anglab yetish uchun insondan unchalik katta hayot tajribasi talab qilinmaydi. Ko'p o'ylab, kamroq so'zlagan odamni atrofdagilari orasida obro'si boshqacha bo'ladi. Chunki aqlli inson sukut saqlab jim turadi, nodonning esa og'zi yopilmaydi.

**Dangasa, ishyoqmas va tanballar** ham alohida tanqid ostiga olinib halollik ulug'lanadi:

**Idleness is the root of all evil.**

Bekorchilik yomonlik va yovuzlikni ildizi, hamma bema'ni illatlarni tubida tanballik yotishi ifodalangan.

**The devil finds work for idle hands to do.**

Shayton ishyoqmas va dangasa qo'llar uchun mal'un ishlar topib berishi, ularni o'z qing'ir ishlarini amalga oshirishga undashi tasvirini topgan.

**Fair play is a jewel.**

O'yindagi halollik qimmatbaho toshga o'xshatiladi. Chunki halol insonni ishlari har doim o'ngidan keladi.

**Honesty is the best policy.**

Darhaqiqat, halollik eng yaxshi siyosatdir. Halol insonning yuzi hech qachon yerga qaramaydi. Yuqoridagi maqoldan halol mehnat eng yaxshi odat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Maqollar **tejamkorlik va mehnatsevarlikka** o'rgatadi:

**A penny saved is a penny gained.**

**Take care of the pence, and the pounds will take care of themselves.**

Angliya pul birligi funt-sterling bo'lganligi sababli, ularning bir tiyini a penny deb ataladi. Yuqoridagi maqolda inglizlar nutqida ko'p ishlatadigan tejalgan bir tiyin ham ishlab topilgani bilan barobarligi ifodalangan. Agar odam har bir ishlatadigan tiyini ham ehtiyotkorlik bilan o'ylab ishlatsa, funt-sterling o'z-o'zidan tejalishi tasvirlangan.

**He who would eat the nut must first crack the shell.**

**He that would eat the fruit must climb the tree.**

Yong'oqni yemoqchi bo'lgan odam avvalo uni po'chog'ini sindirishi kerakligi, va hech narsaga osonlik bilan yetishib bo'lmasligi aytilgan. Undan tashqari, meva yeyishni istagan odamga ham daraxtni tepasiga chiqishi shartligi o'qtirilgan.

Maqollarda **urushni** yaxshi va yomon jihatlari muhokama qilinib **tinchlik** madh etiladi:

**War is the sport of kings.**

Urushni faqatgina Angliya qirollarining bir ermagi sifatida, musobaqadek qarashlari; undan tashqari, urush faqatgina qirollargagina foyda keltirishi ta'kidlangan. Oddiy xalqning urushdan zig'irchalik foydasi yo'qligi, aksincha urush dahshatlaridan qiynalishi tariflangan.

**When war begins, hell opens.**

Qachonki urush boshlanganida, jahannam eshiklari ochiladi. Qanchadan-qancha begunoh insonlarini yostig'i qurib bu yorug' dunyodan o'n gulidan bir guli ochilmasdan erta ko'z yumadi.

**Peace makes plenty.**

Dunyodagi eng bebaho ne'mat bo'lmish tinchlikni farovonlik yaratishini yuqoridagi maqoldan ko'rishimiz mumkin. Xalq o'sib-o'nib, kamolotga yetishi uchun eng asosiy poydevor bu tinchlik ekanligini unutmashimiz kerak.

**Peace is the rain that makes the grass grow and war the wind that dries it out.**

Yana tinchlikni o't-o'lanlarni o'stiragan yomg'irga o'xshatilishi, urushni esa o'sha ko'klamni quritib bitiradigan sovuq shamolga qiyoslanganligi urushning yaxshi jihatlaridan ko'ra yomonligini isbotlovchi maqollar ko'pgina desak adashmasak kerak.

Ko'pgina maqollar **ijobiy** baholashdan iborat:

**A great ship asks deep waters.**

Geografik jihatdan Angliya suv bilan o'ralganligi sababli; undan tashqari, jahon tarixida dunyodagi eng kuchli dengiz flotiga ega mamlakat bo'lganligi sababli xalq hayotida suvning o'rni beqiyos. Katta kema suzishi uchun chuqur suv havzasi kerak, ko'lmak joyda kema suza olmaydi. Ya'nikim, komil inson bo'lib yetishish uchun buyuk g'oyalar va imkoniyatlar kerak tariqasida tasvirlangan.

**Brevity is the soul of wit.**

Inson fikrini ifodalashda tinglovchini zeriktirib qo'ymaslik uchun va unga fikrni aniq va ravshan qilib yetqazishda qisqalilikka alohida urg'u berilgan. Zeroki, qisqalilik donolikni ruhiyati sifatida talqin qilinishi behudaga emas. Qisqalilik bu – teranlik degani.

**Little strokes fell great oaks.**

Angliyaning ramziy belgilaridan biri bo'lmish baquvvat eman daraxtini ham hattoki kichik zarbalar oqibatida yiqilishi mumkinli, inson sabr-qanoat bilan bir ishni qilsa, albatta uning rohatini ko'rishi anglatadi.

**Good health is above wealth.**



Inson tug'ilib o'sib, kamolotga yetar ekan, hayot tarzi davomida topgan boyliklari ham yo'qotilgan sog'ligini qaytarolmasligi bu bebaho boylikni asrab-avaylashga chaqiradi. Zeroki, sog'likni boylikdan ustun turishini hamma ham vaqtida anglab yetolmaydi.

Maqollarning ma'no ifodalanishiga ko'ra butunligicha yagona fikrni talqin qilishi yoki qisman talqin qilishi mumkin.

Bitta qismni metafora yordamida ifodalaydigan maqollar:

**Calamity is a man's true touchstone.**

Insonning qanaqaligi boshga qiyinchilik va musibat tushganda bilinarkan.

**Familiarity breeds contempt.**

Inson qanchalik ko'p bilsa va xabardor bo'lsa, u shunchalik qadrlamaydi. Xabardorlik mensimaslikni keltirib chiqaradi.

**Like begets like.**

**Olmani tagiga olma tushadi.**

**Like cures like.**

**Achchiqni achchiq kesadi.**

Yuqoridagi ikkita maqolda like so'zi maqolni boshida va oxirida ramka sifatida qaytalanmoqda. Maqollarda kamdan-kam uchraydigan bunaqa takrorlanish xalqasimon takrorlanish deb ataladi.

**Necessity is the mother of invention.**

**Ehtiyoj barcha kashfiyotlarning onasidir.**

**Procrastination is the thief of time.**

**Orqaga qoldirish vaqtni behudaga yo'qotishdir.**

Yuqorida ikkita maqolda ehtiyoj va orqaga qoldirishni metafora yordamida ma'nosi kuchaytirib yetqazib berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyida ikkita qismi ham metaforadan tashkil topgan maqollarni uchratishimiz mumkin:

**Faults are thick where love is thin.**

Agar sevgi yuzaki va qalbaki bo'lsa, inson xatolari yaqqol ko'zga tashlanib ayblari qanchalik kattaligi bilinib qoladi. Ushbu maqolda antonimlar yordamida xato va sevgi ifodalangan.

**That which was bitter to endure may be sweet to remember.**

Darhaqiqat, sabr qilib chidash qanchalar achchiq bo'lsa ham, o'sha narsa vaqti kelib eng shirin xotiralardan biri sifatida eslanishi mumkin.

**Life is not a bed of roses.**

Hayot atirgullar bilan bezatilgan gulzor emas, u har doim ham bir xilda davom etmaydi. Uning pastu-balandlariga inson doimo tayyor turishi kerak.

Ingliz tilidagi **Til** tematik guruhiga kiruvchi maqollar:

**Language is the dress of thought.**

Til tafakkurning libosidir. Har bir tilning boyligi va o'zgachaligini yuqoridagi maqolda ko'rishimiz mumkin.

**You are as many a person as languages you know.**

Inson qancha ko'p til bilsa, shuncha ko'p odam deganidir. Chunki ikkita til bilgan inson bitta til bilgan insondan yaxshiroq.

**Who knows the language is at home everywhere.**

Chet tillarini bilishning asosiy foydali taraflaridan biri bu boshqa joyda bo'lsangiz ham xuddi o'z uyingizdagidek qiynalmasdan odamlar bilan muloqot qila olasiz. Yuqoridagi maqol kishini ko'proq til o'rganishga undaydi.

**The echo knows all languages.**

Darhaqiqat, aks-sadoning barcha tillardagi ko'rinishi bir xil. Chunki inson qanaqa tilda so'zlamasin, uning aks-sadosi o'sha tilda o'ziga qaytadi.

**There are many languages on earth, but one in heaven.**

Dunyoda qanchadan-qancha tillar bor. Insonlar har xil tilda so'zlashib bir-biri bilan muloqot qilishadi. Lekin barcha insonlarni birlashtiradigan til bu jannatdadir.

Ingliz tilidagi **Nutq** tematik guruhiga kiruvchi maqollar:

**Saying is one thing and doing another.**

Inson tilidan chiqadigan har bir soʻzni uzoq oʻylab, shoshilmasdan aytmoqligi lozim. Zeroki aytmoq bir-u, qilmoq boshqa.

**A rich man's joke is always funny.**

Britaniya orollariga qarashli Men xalqi shoiri Tomas Edvard Braun quyidagicha yozgan:

**“Money is honey, my little sonny,**

**And a rich man's joke is always funny.”**

Boy odamning davrada aytgan hazili unchalik kulguli boʻlmasada, ammo uning atrofidagi laganbardorlari va sheriklari tomonidan qiziqib tinglanib, handon otib kulishlari shubhasizdir. Buning aksi oʻlaroq, kambagʻal odam boylar qurshovida davrada juda ham kulguli hazilar qilsa ham, uni hech kim eshitmasligi yoritilgan.

**Speech is silvern, but silence is golden.**

Nutq qanchalar chiroyli boʻlmasin, ammo oltin sukutga teng kela olmaydi. Bundan kelib chiqadiki, har qancha betakror soʻzlar bilan yonib soʻzlamang, kerakli vaqti oʻsha oltinga teng jim oʻtirishni eplay olish kerak.

**Speak well of the dead.**

Olamdan oʻtgan odam haqida uning qanday inson boʻlganidan qatʻiy nazar yaxshi gaplar aytib eslash kerakligini yuqoridagi maqoldan ham koʻrishimiz mumkin.

**There is a time to speak and a time to be silent.**

Insonga soʻzlash uchun ham vaqt beriladi, jim oʻtirish uchun ham. Chunki har narsada ham meyor boʻlgani yaxshidir.

**Words cut more than swords.**

Yomon tilning hattoki qilichdan ham oʻtkirligi, inson qalbini qilich jarohatidan ham koʻra til jarohati koʻproq aziyyat chekishga majbur qilishini quyidagi maqolda koʻrishimiz mumkin:

**When the word is out it belongs to another.**

Aytilgan soʻz gapirilganidan soʻng u soʻzlovchiga tegishli boʻlmaydi. Uni orqaga qaytarishning iloji yoʻq. Shuning uchun yuqoridagi maqol kishini oʻylamasdan gapirmaslikka oʻrgatadi.

Shuni ham taʼkidlab oʻtish joizki, Ingliz tilidagi maqollarning semantik belgilari oʻziga xosligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bunga albatta bu xalqning geografik jihatdan joylashuvi, yaʼnikim, dunyo tarixida eng kuchli dengiz flotiga ega boʻlganligi, undan tashqari, dini, madaniyati va turmush tarzi katta taʼsir koʻrsatgan. Xalq tilidagi maqollar ichida aynan qaysilari uning nutqida keng ishlatilib kelinishi, boshqalari esa qisqarib ketishi, undan tashqari, butunlay yoʻqolib ketishi bizga qorongʻu.

## **2.2 Oʻzbek tilidagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik belgilari**

Oʻzbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus toʻplamlar tuzish ishlari esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. V.P.Anikinining fikriga qoʻshilmasdan ilojimiz yoʻq: “Национальное своеобразие афористического фольклора прежде всего выражается в присущем каждому народу особом взгляде на действительность, в особом исторически складывавшемся восприятии мира, в характере социальных и поэтических обобщений. Эти особенности весьма затрудняют точный перевод пословиц с одного языка на другой, так как национальная специфика выражается в трудных для передачи на другой язык семантических и стилистико-речевых оттенках при оформлении, передаче и воплощении образа” [В.П.Аникин Пословицы и поговорки народов Востока, 1961. С.12]. Oʻzbek xalq maqollarini toʻplash va oʻrganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash boʻldi. 1987-1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan “Oʻzbek xalq maqollari” oʻn uch mingga yaqin xalq maqolini oʻz ichiga oladi. Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedov “Maʼnolar maxzani”

[Toshkent, 2001 y.] to'plamida 20 mingga yaqin maqolni etimologiyasi va xar xil variantlari alifbo tartibida joylashtirishgan.

P.U.Bakirov O'zbek xalq maqollaridagi tematik guruhlar haqida quyidagicha yozadi: “В сборнике <Узбек халк маколлари> (Ташкент, 1965 г.) представлено 30 предметно-тематических групп: 1) о Родине и патриотизме; 2) труде и трудолюбии; 3) коллективизме; 4) дружбе и несогласии; 5) науке и искусстве; 6) мудрости и невежестве; 7) мужестве и человечности; 8) храбрости и трусости; 9) бдительности и осторожности; 10) семье и родственниках; 11) любви и верности; 12) почитании и уважении старших; 13) вежливости и воспитании; 14) ценности; 15) гостях и гостеприимстве; 16) хорошем слове и доброте; 17) правдивости и неискренности; 18) предусмотрительности и неумелости; 19) экономии и бережливости; 20) воздержанности и терпеливости; 21) чистоте и бережливости; 22) уверенности и безнадежности; 23) хвастливости и зазнайстве; 24) жадности и алчности; 25) животных; 26) наставления; 27) аллегорические пословицы; 28) назидательные пословицы; 29) бедности и нужде: пословицы об историческом прошлом; 30) пословицы, направленные против бесправия.” [Бакиров, 2006, С.58-59].

Undan tashqari, P.U.Bakirov O'zbek xalq maqollaridagi o'xshash tematik guruhlarini yana boshqa to'plamda ham uchratishimiz mumkin deb yozadi: “Сходный перечень предметно-тематических групп находим в сборнике <Узбекские народные пословицы> (Ташкент, 1985 г.): 1) Родина – народ; 2) коллектив – единство; 3) дружба – согласие; 4) труд – трудолюбие – лень; 5) знание – умение; 6) мудрость – невежество; 7) добро – зло, добрые – злые люди; 8) скромность – высокомерие; 9) доблесть – мужество; 10) честность – правдивость; 11) бдительность – осторожность; 12) предусмотрительность – предприимчивость; 13) щедрость – жадность; 14) гости – гостеприимство; 15) достоинство – уважение; 16) справедливость – совесть; 17) любовь – верность; 18) семья – родня – соседи; 19) воспитание – воспитанность; 20) надежда – безнадежность – мечты; 21) счастье – успех; 22) терпение –

выдержка; 23) бережливость – экономия; 24) лицемерие – коварство; 25) время – действие; 26) соответствие – несоответствие; 27) здоровье – болезнь; 28) молодость – старость; 29) жизнь – смерть; 30) пиршество – свадьба – траур; 31) изобилие – нехватка; 32) времена года – явления природы; 33) животные – человек; 34) исторические пословицы (нужда – бедность); 35) бесправие.” [Бакиров, 2006, С.59].

“O’zbek xalq maqollari” [T. Mirzayev, Toshkent, 2005 y.] to’plamida maqollar 70 tematik mavzuga bo’lingan: 1) Vatan va vatanparvarlik; 2) Jamoatchilik va xudbinlik; 3) Mehnatsevarlik va ishyoqmaslik; 4) halollik va tekinxo’rlik; 5) to’g’rilik va egrilik; 6) yaxshilik va yomonlik; 7) yaxshi so’z va yomon so’z; 8) adolat, insof va insofsizlik; 9) do’stlik va dushmanlik 10) tinchlik va notinchlik; 11) botirlik va qo’rqoqlik; 12) tenglik va tengsizlik; 13) donolik va nodonlik; 14) ilm, kasb-hunar va ilmsizlik; 15) mardlik va nomardlik; 16) tarbiya va odat; 17) odob va odobsizlik; 18) mehmon va mehmondo’stlik; 19) saxiylik va baxillik; 20) go’zallik va xunuklik; 21) kamtarlik va manmanlik; 22) baxt, omad va omadsizlik; 23) epcillik va noshudlik; 24) to’g’ri so’z va yolg’onchilik; 25) sabr-qanoat va sabrsizlik; 26) mehr-oqibat va oqibatsizlik; 27) qadr-qimmat va qadrsizlik; 28) muhabbat va bevafoqlik; 29) oila va qo’shnichilik; 30) qarindosh-urug’chilik va begonalik; 31) farzand va befarzandlik; 32) tajribakorlik va kaltabinlik; 33) ta’magirlik va ochko’zlik; 34) umid va umidsizlik; 35) ishonch va ishonchsizlik; 36) erk-va erksizlik; 37) barqarorlik va beqarorlik; 38) ahillik va noahillik; 39) or-nomus va nomussizlik; 40) g’urur va xushomad; 41) samimiylik va nosamimiylik; 42) andisha va andishasizlik; 43) farosat va farosatsizlik; 44) sabab, bahona va natija; 45) samaradorlik va besamarlik; 46) rizq-nasiba va benasiblik; 47) tejamkorlik va isrofgarchilik; 48) naqd va nasiya; 49) ehtiyoj va zaruriyat; 50) reja va rejasizlik; 51) me’yor va me’yorsizlik; 52) qudrat va ojizlik; 53) foyda va zarar; 54) mas’uliyat va mas’uliyatsizlik; 55) taqdir va tadbir; 56) vaqt va fursat qadri; 57) imkon va imkonsizlik; 58) farovonlik va yetishmovchilik; 59) ehtiyotkorlik va ehtiyotsizlik; 60) mamnunlik va afsuslanish; 61) tozalik, sog’lik va bemorlik; 62) dehqonchilik va chorvachilik; 63) sevinch va g’am; 64)

to'y va motam; 65) yoshlik va qarilik; 66) yo'l va yo'ldosh; 67) hayvonlar va qushlar; 68) yil fasllari va tabiat hodisalari; 69) faqirlik va boylik; 70) amaldorlar va avom din vakillari.

Turli davrlar, turli yillarda to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar, asosan, bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi va mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

O'zbek tilidagi maqollarga to'xtaladigan bo'lsak, asrdan-asrga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqollarimizning ma'no jihatdan naqadar yetukligiga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so'zning o'nlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

Xalqimizda vatanga muhabbat onaga muhabbatdek ilohiy ekanligini **vatan va vatanparvarlik**ni madh etuvchi maqollarni ko'pligi yaqqol dalil bo'la oladi:

**Vatanning tinch – sen tinch.**

Tinchlik haqida qancha so'z yuritsak ham, uning qanchalar bebaho oliy ne'mat ekanligini to'la yoritib bera olmasak kerak. Atrof-muhitda qanchalar parokandalik, qanchalar boshboshdoqlik bo'lsa, inson taraqqiyoti shunchalar orqaga ketishi, na o'ngida, na uyqusida halovat bo'lmasligi ham eng oliy ne'mat bo'lmish tinchlikni ko'z-qorachig'imizdek asrab-avaylashga undaydi.

**Ona yurtning – oltin beshiging.**

Inson tug'ilganidan uni beshikka belab alla aytib katta qilishadi. O'z tug'ilib o'sgan yurtning oltin beshikka qiyoslanishi ham bejizga emas.

**Tug'ilgan yering - Vatanning,**

**Vatanning – nomusing.**

Xalqimizda or-nomus, hayo-ibo, oriyat va diyonat kabi tuyg'ular xar bir insonning qon-qoniga singib ketgan desak mubolag'aga yo'l qo'yilmagan bo'ladi. Inson or-nomusini qanchalar asrasa, Vatanini ham shunchalar asrashi shart.

**O'zga yurtning gulidan,**

### **O'z yurtningning cho'li yaxshi.**

Yuqoridagi maqolda boshqa bir yurtning gulidan ko'ra o'z yurtningning cho'li yaxshiligi tasvirlangan. Shu o'rinda O'zbekiston Xalq Shoiri Abdulla Oripovning "Parijni alishmasman beda poyangga" misralarini eslamasdan ilojimiz yo'q. Negaki, Fransiyaning Parij shahri Yevropaning durdonasi sifatida qanchalar bebaho deb tan olingan bo'lsa ham, shoir o'z yurtidagi beda poyaga ham butun bir shaharni alishmasligi vatanni har bir qarich yerini mislsiz darajada tengi yo'qligidan dalolat beradi.

Xalqimizda **jamoatchilik va xudbinlik** mavzusidagi maqollar xalqni butun bir tanu-jon bo'lib birlashishga undaydi:

**Yolg'iz otning changi chiqmas,**

**Changi chiqsa ham dong'i chiqmas.**

Birlashmagan odamning ishi o'xshamasli, uning yolg'iz o'zi hech nimaga erisholmasligi, oqibatda parokandalikka yuz tutishi mumkinligini yuqoridagi maqolda ko'rishimiz mumkin.

**Birlashgan – o'zar,**

**Birlashmagan – to'zar.**

Inson bir narsaga erishmoqligi uchun elda birlashib, bir tanu bir jon bo'lib harakat qilsagina ko'zlagan maqsadiga erishadi. Shuning uchun ham bejizga xalqimizda bir yoqadan bosh chiqarib ish qilaylik degan ibora ko'p ta'kidlanadi.

**O'zim bo'lay dema, o'zgalar g'amini ye.**

Xudbinlik naqadar yomon illat. Faqat o'zini o'ylaydigan odam oqibatda hech narsaga erisholmay parokanda bo'ladi. Atrofidagi yor-do'stlari haqida qayg'urmaydigan odam bilan muomala qilishda ehtiyot bo'lish kerak. O'zgalar g'amini yeydigan hojatbaror odamni ham olloh ishini o'ngidan keltiradi.

Maqollarning **mehnatsevarlik** va **ishyoqmaslik** mavzusida to'xtaladigan bo'lsak, xalqimizning qanchalar tanti va mehnatkash ekanligini, ishyoqmaslikni qanchalar qoralashini shohidi bo'lishimiz mumkin:

**Mehnat, mehnatning tagi – rohat.**



Inson doimo mehnat qilishi kerak. Mehnat qilib topgan noni ham shakardek shirin bo'ladi. Faqat mehnat qilibgina uning rohatini ko'rish mumkin.

**Mehnat qilsang qaram bo'lmaysan.**

Birovga qaram bo'lish yomon odat. Inson o'z kuchi bilan barcha narsaga erishishi kerak. Vaholanki, mehnat qilib o'z nonini topgan odam birovga qaram bo'lmasdan el ichida o'z qaddini tik tutib turadi.

**Mehnatsiz topilgan mol hisobsiz ketar.**

Inson qanday qilib topishiga qarab boyligini sarflaydi. Chunki mehnatsiz osonlik bilan topgan molini o'ylamasdan sarflab yo'q qiladi. Mashaqqat qilib topilgan har bir tiyini ehtiyotkorlik bilan, o'ylab sarflaydi.

**Bekorchidan el bezor,**

**So'zidan ko'ngil ozar.**

Bekorchi, ishyoqmas odam xalq ichida xurmatsiz bo'ladi, undan hamma bezor bo'lib yoniga yo'latmaydi. Gapirgan gaplari bemazaligidan ko'nglingizga tegib g'ashingiz keladi.

**Bekorchining hunari – g'iybat.**

Barcha yomon illatlarning hammasini kelib chiqisida bekorchilik yotadi. Bekorchi odam bekorligidan g'iybat qiladi, g'iybatchilik esa yomon illat. Axir bejizga yurtboshimiz yoshlarni bo'sh vaqtini qoldirmaslik kerakligi, sport bilan shug'ullantirish, kutubxonalarga, to'garaklarga tashrif buyurtirib kitoblar bilan do'stlashtirish, yoshlarni ongida bo'shliq paydo bo'lmasligi uchun bunyodkor g'oyalar bilan to'ldirish kerakligini doimo ta'kidlaydilar.

**Ish ishtaha ochar,**

**Dangasa ishdan qochar.**

Ishlagan odamning ishtahasi ochilib, g'ayrati kelib yanada maroq bilan ishlagisi kelar. Dangasa odam esa ishdan doimo qochib, biri ikki bo'lmasdan bu dunyodan rohat topmay o'tib ketadi.

Xalqimizda **halollik va tekinxo'rlik** mavzusidagi maqollarning anchaginaligi inson yeydigan osh-tuzining qanchalar halol bo'lishiga kuchli e'tibor berishidan darak beradi:

**Bersang – yeydi, ursang – o’ladi.**

Faqatgina bersangiz yeydigan, tekinxo’r, tepsa-tebranmas odamning qanchalar yomonligini, unaqa odam bilan xech kim bordi-keldi qilmasligini va buning qanchalar yomon odat ekanligini yuqoridagi maqolda ko’rishimiz mumkin.

**Yulg’ich yulib to’ymas.**

Tekinxo’r xar qancha olsa ham to’ymaydi, besh qo’lini og’ziga tiqadi. Tekin bo’lsa hattoki toshni yut naqlida har doim ko’zi och bo’lib bir nima ilinjida umidvor yuradi.

**Oshing halol bo’lsa, ko’chada ich.**

Xalq ichida ushbu maqolning oxirgi “ich” so’zini “ye” tariqasida o’zgartirib ishlatilishiga ko’p ko’zimiz tushgan. Ya’ni: “Oshing halol bo’lsa ko’chada ye, nima ish qilyotganimni hamma ko’rsa ko’rsin, bilsa-bilsin, chunki qilayotgan ishlarim halol” deb ishlatiladi.

**Og’iz yesa, ko’z uyalar.**

Yuqoridagi maqolni ham ozgina o’zgartirib keng ishlatilishini eslamasdan bo’lmaydi. Ya’ni “Yegan og’iz uyalar” tariqasida. Bir narsadan foydalandingizmi, tekinxo’rlik qilmasdan, shu narsa halol bo’lishi uchun kishi qilgan yaxshiligini yerda qoldirmasdan qo’ldan kelgancha qaytarish lozim.

**Halol pishib chiqar,**

**Harom teshib chiqar.**

Darhaqiqat, halol mehnat bilan topilgan non boshqacha bo’ladi, insonga yuqadi. Harom yo’l bilan topilgani esa, albatta bir kunmas bir kun teshib chiqadi.

O’zbek xalqida **faqirlik va boylikni** yoritib beruvchi maqollar ham anchagina:

**Boy kiysa – “qutlug’ bo’lsin”,**

**Kambag’al kiysa – “qaydan olding”.**

Boy odamni boyligini qayerdan orttirib olgani bilan hech kimni ishi yo’q, kambag’al odam esa bir narsaga erishsa hammani u bilan ishi bor. Qanday qilib bu narsaga erishganini hamma so’rov-istov qiladi.

**Boylik, boylikning tubi – o’g’rilik.**

O'g'ri o'g'irlikdan boyib ketsa, o'z-o'zidan oliyjanobga aylanadi. Negaki, halol ishlagan odam juda ham boyib ketmaydi. O'z topgani o'zi va oila a'zolariga yetsa bo'ldi, boriga qanoat qilib ollohga shukurlar aytib yashab yuradi.

**Kambag'alning to'yi to'kin bo'lar,**

**Boyning to'yi yupun bo'lar.**

Kambag'al odam to'y qilsa yig'ib tergan borini dasturxoniga qo'yadi, to'yning fayzi, undagi odamlarning sodda, tanti munosabatini ko'rib ketgingiz kelmaydi. Boyning to'yida hamma narsa soxtadek, xo'ja ko'rsingagina ekanligini sezib turasiz. Gapirilayotgan gaplarning ham ma'no-mazasi bo'lmaydi, go'yoki puch yong'oq kabi yuzaki, faqatgina bir-biriga maqtanish uchungina ekanligini anglash uchun kishidan ko'p aql talab qilinmaydi.

Maqollarda **urushni** yomonlab bebaho ne'mat bo'lmish **tinchlikni** madh etiladi:

**Urushli uy – mozor.**

Tarixdan bizga ma'lumki, hech bir urush talofotsiz bo'lmagan. Ushbu maqolda “uy” bu kishi yashaydigan vatanidir. Har bir urushda qanchadan-qancha begunoh insonlarning qoni to'kiladi. Minglab yosh go'daklar otasiz yoki akasiz qoladi. Ana shu o'z uyimiz – Vatanimizni mozorga aylantirmasligimiz uchun tinchligimizni ko'z-qorachig'imizdek asrab-avaylashimiz kerak.

**Urushning boshi – o'yin,**

**Oxiri – o'lim.**

Yuqoridagi maqolda urushning arzimagan narsadan boshlanishi, o'yinga o'xshab qiziqqonlik qilinishi tasvirlangan. Urush so'ngida esa behisob o'lim keltirishi ta'kidlangan.

**Urush – yo'qlik,**

**Tinchlik – to'qlik.**

Har bir urush yo'qchilikka sabab bo'ladi. Ikkinchi Jahon urushi oqibatida yuzaga kelgan yo'qchilikdan Toshkentga qanchadan-qancha yosh bolalarning keltirilishi, har bir oilaning imkoni boricha bola asrab olishi va o'zlari yo'qchilikda yashayotganiga qaramasdan o'sha bolalarga mehribonchilik ko'rsatishi

xalqimizning qanchalar mehribonlikdan dalolat beradi. Tinchlikning esa to'qlik deb ta'rif berilishi hozirgi zamonda Yurtimiz tinchligi, osmonimiz musaffoligi va xalqimizning bekamu-ko'st yashayotganligi yaqqol dalil bo'la oladi.

**Tinchlik – farovonlik yo'ldoshi.**

Tinchlik haqida har qancha so'z yuritsak ham kam. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi va insonlarning kamolotga yetishi, umuman olganda kundan-kunga gurkurab rivojlanayotganligimiz eng aziz va bebaho ne'matimiz bo'lmish tinchligimiz oqibatida ekanligini o'zini shu yurtning farzandiman deb yelib-yugurib yurgan har bir inson yodida tutishi shart.

O'zbek xalqida **donolik va nodonlik** mavzusidagi maqollar:

**Ahmoqniki – og'zida,**

**Podshoniki – g'aznada.**

Yuqoridagi maqolda ahmoqni topgani qo'lida bo'lishi, podshoniki esa g'aznada, ya'ni ehtiyot qilib saqlanadigan joyda bo'lishi tasvirlangan.

**Ahmoqni charchatar oyoq,**

**Ahmoqning davosi tayoq.**

Ahmoq odam chaqirilmagan joyga ham boradi. Har bir bosgan qadamini o'ylamasdan bosadi. O'sha qilgan harakatlaridan pand yeb boshida tayoq sinadi.

**Ahmoq boshdan aql chiqmas,**

**Aql chiqsa ham, ma'qul chiqmas.**

**Bukrini go'r tuzatar.**

Ahmoq odamga har qancha o'rgatsangiz ham, uni yaxshi tomonga o'zgartirish maqsadida yaxshilik qilsangizda, baribir o'z bilganidan qolmasdan hammasini chippakka chiqaradi. Hattoki aql yopishtirib qo'ysangiz ham, uni qo'li bilan olib tashlaydi.

**Aqlni beaqldan o'rgan.**

Dono xalqimizda bejizga ushbu maqol doimo takrorlanmaydi. Chunki beaql odam qilgan ishlardan xulosa chiqarib, ularni qilmaslikka urinadigan odam aqli bo'ladi.

**Sukutda hikmat ko'p,**

**Bulutda – himmat.**

Ya'nikim, aqlli va dono odam boshqalar oldida ko'p gapirmasdan, sukut saqlab turadi, nodon esa davrada og'zi tinmasdan gapiradi.

**Aql – boshda,****G'ayrat – yoshda,****Asl – toshda.**

Xalq ichida ushbu maqolni ozgina o'zgartirib "Aql yoshda emas boshda" naqlida ko'p ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

**Dono – durdan a'lo.**

Dono odamning duru-javohirlardan ham yuqori turishi, uning har bir fikri qanchalik qimmatli ekanligini yuqoridagi maqoldan ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilidagi **Til** tematik guruhiga kiruvchi maqollar:

**Tilga e'tibor – elga e'tibor.**

Respublikamiz uzoq kutilgan mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbek tilining davlat tili sifatida tan olinishi erishilgan eng katta yutuqlarimizdan biri bo'ldi. So'nggi yillarda Yurtboshimizning tilga katta e'tibor qaratib uni rivojlantirishga qaratilgan qator qaror va farmonlari elimizga bo'layotgan katta ehtiromdir.

**Til – aql bezagi.****Til – aql tarozusi.****Til – aql o'lchovi.**

Tilning aql tarozusi va bezagi ekanligini yuqoridagi maqoldan ko'rishimiz mumkin. Inson so'zlayotgan tili uning aqlini bezagi, tarozusi va o'lchovidir.

**Ilon zahri – tishida,****Yomon zahri – tilida.**

Yomon so'zlar so'zlaydigan insonlarni xalqimiz zaharli ilonga o'xshatib zahri tilida deb tasvirlaydi.

**Achchiq til – zahri ilon,****Chuchuk tilga – jon qurbon.**

Tilning ham achchig'i, ham chuchugi bo'lishi va yana tili bemani odamga ilon zahari ham kam, tili shirin odamga esa jon qurbonligi yuqoridagi maqolda mohirona tasvirlangan.

**Yomon til boshga balo keltirar,**

**Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.**

Tili yomon odamning boshiga shu tili musibat keltirishini, tilidan faqat yaxshi so'zlar tushmaydigan insonga esa tili yaxshilik, molu-dunyo keltirishini yuqoridagi maqolda ko'rishimiz mumkin.

**Tilning suyagi yo'q.**

Xalq ichida ushbu maqolni biroz o'zgartirib, "Til – besuyak, gapiraveradi" tarzida ishlatiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, inson tiliga erk beravermasligi kerak. Yuqoridagi maqol kishini mulohazali bo'lishga o'rgatadi.

**Qizli uyning tili biyron,**

**Sovchilarning tili tiyron.**

O'zbek xalqida oilada qizning bo'yi yetgandan so'ng xonadon eshigidan sovchilarning keti uzilmay qoladi. Shunda xonadon egalari sovchilarga o'zining barcha talablarini bemalol qo'yishadi. Sovchilar esa maqsadlariga erishish uchun hammasiga rozi bo'lishadi. Xalqimizgagina xos bo'lgan sovchilar vositasida ikki yoshni boshini ikkita qilish an'alarimiz borligi bilan barchamiz faxrlanamiz.

**Yomon til yo jonga urar,**

**Yo – iymonga.**

Faqatgina o'zbek xalqigagina xos bo'lgan iymon, e'tiqod so'zlarining xalqimiz hayotida qanchalar muhim o'rin egallashini yomon til yo jonga urishi yoki iymonga urishi tariqasida maqollarda o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilidagi **Nutq** tematik guruhiga kiruvchi maqollar:

**Aytilgan so'z – otilgan o'q.**

Inson og'zidan chiqqan so'zni qaytarib ololmaydi. So'z aytilganidan keyin otilgan o'q misoli uchib ketadi. Shuning uchun kishi gapirayotgan har bir so'zini puxta o'ylaganidan so'ng gapirishi lozim.

**Gap – boshqa, ish – boshqa.**

**Gapni katta gapirma,****Nonni katta tishlama**

Balandparvoz gaplar gapiradigan va suhbatdoshini qo'ynini puch yong'oqqa to'ldiradigan odamlar qanchadan qancha. Lekin so'zida turadigan va aytgan hamma ishlarini amalda qiladigan odamlar soni kamdir. Xalq ichida "Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma" tarzida o'zgartirib ishlatilishini ko'p uchratamiz. Yuqoridagi maqol kishini har bir aytgan so'zini bajarishga ko'zi yetsagina so'zlashga o'rgatadi.

**Boyning og'zi qiyshiq bo'lsa ham, so'zi to'g'ri.**

Xalq ichida yuqoridagi maqolni ozgina o'zgartirib "Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyni o'g'li/qizi gapirsin ekanda..." kambag'al odamni gapini hech kim eshitmasligiga urg'u beriladi.

**So'z – kumush,****Jim o'tirish – oltin.**

Darhaqiqat, O'zbek tilida so'z kumushga o'xshatilgan bo'lsa ham, ammo jim o'tirish oltinga tenglashtirilgan. Chunki chiroyli so'zlash yaxshi, lekin sukut saqlab suhbatdoshini ko'proq tinglash undanda yaxshiroq.

**Chin so'z – mo'tabar,****Yaxshi so'z – muxtasar.**

Xalqimiz doimo chin so'zlagan odamni ulug'lab juda hurmat ehtirom ko'rsatishadi. Chunki yolg'inni sarob ekanligini allaqachon anglab yetishgan. Yaxshi so'zni esa muxtasar ya'ni qisqa va lo'nda tarzda tasvirlanadi.

**Quloqdan kirgan sovuq so'z,****Ko'ngilga borib muz bo'lar.**

Inson eshitgan har bir yomon so'z uning diliga toshdek botadi. Sovuq so'z qalbimizda muz bo'lib qotadi. Chunki ko'ngil misoli bir shisha, sindimi qaytib tiklanmaydi. Shuning uchun yuqoridagi maqol kishini sovuq so'zlar aytmalikka undaydi.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, O'zbek xalqining maqollar dunyosini chek-chegarasi yo'q desak mubolag'aga yo'l qo'yilmagan bo'ladi. Asrdan-asrga

avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqollarimizning ma'no jihatdan yetukligi beqiyosdir. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so'zning o'nlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin.

### **2.3 Ingliz va O'zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning semantik qiyoslash analizi**

Bir oilaga tegishli va xar xil oilaga tegishli tillarni qiyoslash-taqqoslashda biz qiyosiy tipologiyadan foydalanamiz.

Katta ensiklopedik lug'atga ko'ra “Типология лингвистическая (от греч. *typos* – отпечаток, форма, образец и *logos* – слово, учение) – сравнительное изучение структурных и функциональных свойств языков независимо от характера генетических отношений между ними. Типология – один из двух основных аспектов изучения языка наряду со сравнит.-историческим (генет.) аспектом, от которого она отличается онтологически (по сущностным характеристикам предмета исследования) и эпистемологически (по совокупности принципов и приемов исследования...)” [БЭС, 2000. С.512].

M.D.Dzhusupovning fikricha, “В современном языкознании сопоставительное изучение языков как особый вид научной деятельности вызывает огромный интерес. Такое положение объясняется не только причастностью специальной лексики к решению собственно теоретических проблем, но и тем, что она непосредственно решает прагматические задачи – обучение неродному и иностранному языкам.” [Джусупов, 2013. С.20].

Xoshimov ta'kidlaydiki, “Сопоставительно-типологическое исследование служит объектом внимания значительного числа современных языковедов. В процессе изучения ими сопоставляется два, три и более языков [Хошимов, 2002].” Darhaqiqat, zamonaviy tilshunoslarning asosiy diqqat



e'tiborida bo'lgan narsa shuki, u ikki, uch va undan ortiq tillarning qiyoslash-taqqoslash analizidir.

Professor Buranov ta'kidlaganidek, qiyoslashda o'zaro taqqoslanadigan tillarning miqdori katta ahamiyatga egaligi haqida aniq bir fikr yo'q. “По этому вопросу нет конкретного мнения. Одни языковеды становятся сторонниками сравнения неограниченного количества языков... другие же лингвисты пишут о возможности сравнения ограниченного числа родственных языков. И, наконец, третья группа языковедов утверждает, что в лингвистической типологии количество сравниваемых языков можно свести до минимума – к двум языкам” [Буранов, 1983.14].

V.G.Gak fikriga ko'ra, “сопоставительная лингвистика (lingvistique contrastiri, differentille) сравнивает два языка независимо от степени их родства с целью выявления сходств и различий между ними” [Гак, 1989. С.7]. Z.K.Axmetjanova belgilab o'tadiki, “сопоставительное языкознания на современном этапе может быть эффективным только в том случае, если его исследования направлены на семантику. При этом следует исходить из категориальных явлений, имеющих принципиальное значение для системы языка” [Ахметжанова, 1989. С.46].

Shu sababli, qiyoslash tadqiqotida asosiy e'tibor semantikaga beriladi. “Выдвигая принцип опоры на семантику как одно из важнейших условий сопоставительного исследования разно системных языков мы исходим из того, что основные понятийные категории, такие как категория времени, места, количества, сравнения и др., универсальны, т.е. они выражаются во всех языках, идиоэтнической спецификой окрашены модификации этих категорий и формы их выражения. То есть мы придерживаемся того мнения, что универсальные законы мышления находят отражение в универсальных понятийных категориях, именно опора на эти универсальные категории может служить надежной основой для сопоставляемых языков” [Ахметжанова, 1989. С.11].

Dzhusupov M.D. ta'kidlaganidek, “Тематический анализ слов, являющийся распространенным методом изучения лексики, теоретически обоснован в работах Д.Н.Шмелева, А.А.Уфимцевой и других ученых.” [Джусупов, 2013. С.16].

Maqollarning har ikkala tildagi boyligi va ma'nodorligini chek-chegarasi yo'q. Buni har ikkala taqqoslab-qiyoslanayotgan Ingliz va O'zbek tillarida ko'rishimiz mumkin. Maqollar inson hayotining har jabhasini, borlig'ini, madaniyati va tarixini o'zida aks ettiradi. Ular faqatgina xalq donoligini aks ettiribgina qolmasdan, insonni to'g'ri yo'lga boshlaydigan mezonlarni va yaxshi va yomon illatlarni tasvirlaydi. Ko'pgina maqollar kishini ko'p narsaga undaydi: qanday to'g'ri yo'l tutish kerak va nimalardan inson o'zini uzoqroq tutishi kerak.

M.D.Dzhusupovning ta'kidlashicha, “Сопоставительно-семантический анализ пословиц позволил эквивалентные и неэквивалентные ряды единиц. В первую подгруппу вошли эквивалентные пословицы тождественные и в плане выражения, и в плане содержания... Наиболее лингвокультурологическими оказались эквивалентные пословицы. Именно в этих пословицах сконцентрирован национально-культурный колорит каждого народа.”[Джусупов, 2013. С.55].

Tasvirlanish jihatidan har ikkala tildagi maqollarning o'xshash jihatlari bir-biriga to'g'ri keladi. Bu tematik guruhlarini qiyoslash-taqqoslash yo'li bilan tahlil qilamiz:

### **Vatan va Vatanparvarlik**

Vatan haqida har qancha so'z yuritsa ham doim kamdir. Vatan bu inson tug'ilgan joyi, uyi, uning borlig'i va yashab turgan diyori. Muhokama qilinayotgan ikkala tilda ham inson uyi, ya'nikim Vatani mustahkam va daxlsiz bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Masalan:

**Eng: Build one's house upon a rock.**

**An Englishman's house is his castle.**

**Uzb: Vatanning tinch – sen tinch.**

**Tug'ilgan yering – Vatanning,**

**Vataning – nomusing.**

Undan tashqari, kishi uyidan o'zga qo'nim topadigan joy yo'qligi ham ta'kidlanadi:

**Eng: East or west home is best.**

**There's no place like home.**

**Uzb: O'z uying – o'lan to'shaging.**

**O'zga yurtning gulidan,**

**O'z yurtningning cho'li yaxshi.**

O'zbek tilida Vatan beshikka o'xshatiladi:

**Ona yurtning – oltin beshiging.**

Sahovat va mehr-muhabbat, ya'ni Vatanga muhabbat kishi o'z uyidan boshlanishi ham tasvirlanadi:

**Eng: Charity begins at home.**

**Uzb: Vatan – ostonadan boshlanadi.**

**Boylik va kambag'allik**

Muhokama qilinayotgan har ikkala tilda ham kambag'allarga achinish mavjud. Ularning og'ir ahvolidan qayg'urish hissi bor. Jamiyatda boylarga va kambag'allarga alohida-alohida munosabat qilinishi tasvirlanadi:

**Eng: One law for the rich, and another for the poor.**

**Uzb: Boy kiysa – “qutlug' bo'lsin”,**

**Kambag'al kiysa – “qaydan olding”.**

Kambag'al odam har doim boshqalardan aziyat chekib yurishini keying maqollarda ko'rishimiz mumkin:

**Eng: The poor man pays for all.**

**Uzb: Kambag'alni hatto tuyaning ustida ham it qopadi.**

Inglizlarda inson kattagina boylikka erishgandan keyin uning aslida kim bo'lganligi bilan hech kim e'tibor bermaydi:

**A thief passes for a gentleman when stealing has made him rich.**

Ingliz xalqi kishini qanchalar kambag'al ekanligiga urg'u berish uchun cherkovda yashayotgan sichqonga o'xshatadi:

**Poor as a church mouse.**

O'zbek xalqida halol yashab, boriga qanoat qiladigan odam boy bo'lib ketmasligi mana bu maqolda tasvirlangan:

**Boylik, boylikning tubi – o'g'rilik.**

Faqatgina O'zbek xalqigagina mansub bo'lgan, bir umr elga osh berish, to'y-tamosha qilish istagida yashashi, kambag'al esa to'yida borini qo'yishi alohida ta'kidlanadi:

**Kambag'alning to'yi to'kin bo'lar,**

**Boyning to'yi yupun bo'lar.**

**Donolik va nodonlik**

O'rganilayotgan maqollarda nodonlik yomon illat sifatida qoralanadi. Ahmoqlarni ustidan kulinadi. Aql yuqori baholanadi. Dono odam jamiyat shamchirog'i sifatida o'zidan nur taratib atrofdagilarni to'g'ri yo'lga boshlashi aytiladi. Xar ikkala xalqda ham ahmoqni topgani uzoqqa bormasligi tasvirlangan:

**Eng: A fool and his money are soon parted.**

**Uzb: Ahmoqniki – og'zida,**

**Podshoniki – g'aznada.**

Ahmoq qadamini o'ylamasdan bosishi tasvirlangan:

**Eng: Fools rush in where angels fear to tread.**

**Uzb: Ahmoqni charchatar oyoq,**

**Ahmoqning davosi tayoq.**

Dono birovning xatosidan saboq olishi yetarlicha tushunarli qilib ifodalangan:

**Eng: Wise men learn by other men's mistakes; fools by their own.**

**Uzb: Aqlni beaqldan o'rgan.**

Ahmoq bo'lib tug'ilgan adamni sira ham o'zgartirib bo'lmasligi qiyoslanayotgan ikkala xalqda ham bor:

**Eng: He who is born a fool is never cured.**

**Uzb: Bukrini go'r tuzatar.**

Aql dono odamning eng bebaho boyligidir:

**Eng: Wisdom is the wealth of the wise.**

**Uzb: Dono – durdan a’lo.**

Aqlli inson sukut saqlab jim turadi, nodonning esa og’zi yopilmaydi:

**Eng: No wisdom like silence.**

**Uzb: Sukutda himat ko’p,**

**Bulutda – himmat.**

Ingliz xalqida pastkash odam bo’lgandan ko’ra ahmoq bo’lish yaxshi deb tasvirlanadi. Ahmoqlikning foydali tarafini ushbu maqolda ko’rishimiz mumkin:

**Better be a fool than a knave.**

O’zbek xalqida kishining yashagan yoshi hurmat-ehtirom bilan qaralsada, uning qanchalik aqlliligi yoshiga bog’liq bo’lmasligini xalqimiz nutqida ko’p uchratishimiz mumkin. Ushbu maqolni ozgina o’zgartirib “Aql yoshda emas, boshda” tarzida:

**Aql – boshda,**

**G’ayrat – yoshda,**

**Asl – toshda.**

### **Tejamkorlik, Mehnatsevarlik, Ishyoqmaslik va Halollik**

Muhokama qilinayotgan maqollar kishini tejamkorlikka undaydi. Topilgan har bir tiyinni qardlashga chaqiradi. Undan tashqari, ishyoqmaslikni insonga naqadar salbiy illat ekanligini ochib beriladi. Mehnatsevarlik yuksaklarga ko’tarilib madh etiladi. Inson barcha narsaga mehnat bilan erishishi tasvirlanadi. Dangasa va ishyoqmaslarni tanqid ostiga olinib, mehnatsevarlar ulug’lanadi. Halollikni inson hayotida muhimligi ta’kidlanadi:

**Eng: The devil finds work for idle hands to do.**

**Uzb: Dangasa boshin yesin,**

**Illatning g’amin yesin.**

Xar ikkala xalqda maqollar tejamkorlikka o’rgatadi:

**Eng: A penny saved is a penny gained.**

**Uzb: Tejamkor zoriqmas,**

**Tejamsiz boyiqmas.**

**Eng: Take care of the pence, and the pounds will take care of themselves.**

**Uzb: Tiyin qadrini bilmagan so'm qadrini bilmas.**

Insonga biron nima kerak bo'lsa, harakat qilishi kerak:

**Eng: He who would eat the nut must first crack the shell.**

**Uzb: Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zar.**

**Eng: He that would eat the fruit must climb the tree.**

**Uzb: Jon kuydirasang, jonona qayda,**

**Toqqa chiqmasang, do'lona qayda.**

Halollik qanchalar yaxshi odat ekanligini ushbu maqollarda ko'rishimiz mumkin:

**Eng: Fair play is a jewel.**

**Uzb: To'g'rilik to'rga tortar,**

**O'g'rilik – go'rga.**

**Eng: Honesty is the best policy.**

**Uzb: Halol mehnat – yaxshi odat,**

**Berur senga saodat.**

Ingliz xalqida bekorchilik yovuzlikning ildizi sifatida talqin qilinadi:

**Idleness is the root of all evil.**

Bundan farqli o'laroq, O'zbek xalqida bekorchi faqat g'iybat bilan shug'ullanishi ta'kidlangan:

**Bekorchining hunari – g'iybat.**

O'zbek xalqining qanchalar mehnatkashlikni ulug'lab, dangasalikni qoralashini xalq nutqida ko'p ishlatiladigan keyingi maqollarda ko'rishimiz mumkin:

**Mehnat, mehnatning tagi – rohat.**

**Ish-ishtaha ochar,**

**Dangasa ishdan qochar.**

Xalqimiz azaldan halol bilan haromni farqiga borgan. Yurish-turishi va yashashi halol bo'lishi uchun harakat qilgan. Haromdan hazar qilishgan. Chunki birovning haqqi hech qachon birovga tatimasligini hamma bilgan:

**Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.**

**Halol pishib chiqar,  
Harom teshib chiqar.**

### **Urush va Tinchlik**

Xalq maqollari urushni yomon jihatlarini ko'rsatadi. Uning ayanchli oqibatlaridan ogoh qiladi. Eng bebaho ne'mat deb hisoblanmish tinchlik haqida alohida so'z yuritiladi. Farovonlikni oqibatida hamma narsa gullab yashnashi ifodalanadi. Xalq kamolotga yetishi uchun tinchlikni naqadar zarur ekanligi tasvirlanadi. Har ikki xalqda ham urushni jahannamga va mozorga o'xshatiladi:

**Eng: When war begins, hell opens.**

**Uzb: Urushli uy – mozor.**

Maqollarda urushni o'yinga o'xshatiladi:

**Eng: War is the sport of kings.**

**Uzb: Urushni boshi – o'yin,**

**Oxiri – o'lim.**

Tinchlikni yaxshi tomonlarini ko'rsatib, urush qoralanadi:

**Eng: Peace is the rain that makes the grass grow and war the wind that dries it out.**

**Uzb: Urush – yo'qlik,**

**Tinchlik – to'qlik.**

Xalq o'sib-o'nib, kamolotga yetishi uchun eng asosiy poydevor bu tinchlikdir:

**Eng: Peace makes plenty.**

**Uzb: Tinchlik – farovonlik yo'ldoshi.**

Faqatgina Ingliz xalqida agar inson tinchlik xohlasa urushga tayyor bo'lishi tasvirlangan:

**If you want peace, be prepared for war.**

O'zbek xalqi hayotida xayr-barakaning alohida e'tirof etilishi barchamizga ma'lumdir. Inson uyidan baraka ketmasligi uchun urushmaslik ta'kidlanadi. Chunki uy tinchligi Vatan tinchligidir:

**Bir kun urush bo'lgan uydan,**

## **Qirq kun baraka ko'tarilar.**

### **Ijobiy baholash**

Muhokama qilinayotgan har ikki xalqda ham ko'pgina maqollar ijobiy baholashdan iborat. Faqatgina ularning tarkibidagi so'zlar har bir mamlakatning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni kelib chiqish tarixi, madaniyati va geografik joylashuvi ta'sirida shakllanadi.

Barchamizga ma'lumki, Angliya jahon tarixida dunyodagi eng kuchli dengiz flotiga ega mamlakat bo'lganligi sababli xalq hayotida suvning o'rni beqiyos. Ko'lmak joyda katta kema suza olmaydi, chunki unga chuqur suv havzasi kerak. Ya'ni, komil inson bo'lib yetishish uchun buyuk g'oyalar va imkoniyatlar lozim:

### **A great ship asks deep waters.**

Yuqoridagi maqolning o'zbek xalqidagi ekvivalenti haqida so'z yuritadigan bo'lsak, geografik jihatdan yurtimiz barcha tarafdin boshqa davlatlar bilan chegaradosh. Ochiq suv havzasiga to'g'ri yo'l yo'q. Eng asosiysi, Buyuk Ipak Yo'lining o'lkamizdan o'tganligi xalq hayotida karvon va karvon yo'lining muhimligini mustahkamlagan:

### **Katta karvonga katta yo'l.**

Baquvvat eman daraxtini ham hattoki kichik zarbalar bilan yiqilishi mumkinligi, ya'ni sabr-qanoat bilan ish qilinsa albatta uning rohatini bo'lishi tasvirlangan. Maqolda ushbu daraxtning misol sifatida olinishi, eman Angliya ramzi ekanligi va u yerda ko'p uchrashidan dalolat beradi:

### **Little strokes fell great oaks.**

Xalqimiz tomchi suvni ham ko'z-qorachig'idek asrab-avaylaydi. Xalq hayotida tomchi suvning o'rni o'ziga xosligidan maqollarda o'z aksini topgan. Tomchi suv hattoki toshni teshishi, boshqacha qilib so'z yuritadigan bo'lsak, harakatda barakat deganlaridek, chin ko'ngildan harakat qilinsa inson albatta maqsadiga erishishi ifodalangan:

### **Tomchi toshni teshar.**

Darhaqiqat, sog'likni duru-javohirlardan ham qimmat turishi va yo'qotilgan sog'lik qancha boylik sarflansa ham qaytib kelmasligi har ikkala xalqda ham



ifodalangan. Inson mol-dunyo orttiraman deb sog'ligiga e'tiborsiz bo'lmasligi lozim. Birgina farqli jihati shundaki, O'rta Osiyoda "tuman" so'zining lug'aviy ma'nosi "o'n ming" degani. Tarixdan bizga ma'lumki, o'n ming kishilik qo'shin "tuman" deb atalgan:

**Eng: Health is better than wealth.**

**Uzb: Salomatlik – tuman boylik.**

### **Til**

Darhaqiqat, har bir til unda so'zlovchilarning tafakkuri va aql bezagi hisoblanadi. Har bir xalq uchun o'z ona tili dunyodagi eng go'zali va betakrori hisoblanadi:

**Eng: Language is the dress of thought.**

**Uzb: Til – aql bezagi.**

**Til – aql tarozusi.**

**Til – aql o'lchovi.**

Tahlil qilinayotgan har ikkala xalqda ham til bilgan inson xor bo'lmasligi tasvirlangan:

**Eng: Who knows the language is at home everywhere.**

**Uzb: Til bilgan yo'lda qolmas.**

Ingliz xalqida aks-sadoda tillarni farq qilmasligi, ya'ni kishi qaysi tilda baqirmasin, albatta o'sha tilda aks-sado qaytishi tasvirlangan:

**The echo knows all languages.**

Ingliz xalqi dunyoda qancha ko'p til bo'lsa ham, jannatda faqat yagona til borligini va insonlar bir-birini baribir u yoqda tushunishini quyidagi maqolda ifodalanadi:

**There are many languages on earth, but one in heaven.**

O'zbek xalqining asrdan-asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat va an'analari milliylik ruhi baxsh etib turadi. Sovchilarimiz nikoh to'yi bo'lib yoshlarni birlashtirishga bor imkoniyatlarini ishga solishadi:

**Qizli uyning tili biyron,**

**Sovchilarning tili tiyron.**

Faqatgina O'zbek xalqigagina mansub bo'lgan, ya'ni elim deb, yurtim deb yashashi quyidagi maqolda mohirona tasvirlangan:

**Tilga e'tibor – elga e'tibor.**

Dono xalqimizda bir gap bor, “Til besuyak, gapiraveradi” degan. Quyidagi maqol kishini mulohazali bo'lishga o'rgatadi:

**Tilning suyagi yo'q.**

O'zbek xalqida iymon, e'tiqod, or-nomus tushunchalari o'zgacha ma'no kasb etadi. Xalqimizning o'ziga xos alohida jihatlaridan biri bo'lmish iymon tushunchasining qanchalar bebaho ekanligini quyidagi maqoldan ko'rishimiz mumkin:

**Yomon til yo jonga urar,**

**Yo – iymonga.**

### **Nutq**

Har ikki xalqda ham gapirilayotgan gap bilan bajariladigan ishni farqi borligi tasvirlangan:

**Eng: Saying is one thing and doing another.**

**Uzb: Gap – boshqa, ish – boshqa.**

Boy so'zlasa nima gapligidan qat'iy nazar hamma quloq tutishi har ikkala xalqda ham bor:

**Eng: A rich man's joke is always funny.**

**Uzb: Boyning og'zi qiyshiq bo'lsa ham, so'zi to'g'ri.**

Chiroyli so'zlash yaxshi, lekin sukut saqlab tinglash undanda afzalligini keyingi maqollarda ko'rishimiz mumkin:

**Eng: Speech is silvern, but silence is golden.**

**Uzb: So'z – kumush,**

**Jim o'tirish – oltin.**

Har ikkala xalqda ham olamdan o'tgan odam haqida yomon so'zlar so'zlamaslik kerakligi o'rgatiladi. Marhumning qanday inson bo'lganligidan qat'iy nazar u haqda yaxshi xotira bilan so'z yuritiladi:

**Eng: Speak well of the dead.**

**Uzb: Ko'pni yomonlagan ko'muvsiz qolar.**

Tahlil qilinayotgan har ikki tilda ham kishini so'zlayotgan gapini puxta o'ylab, mulohaza qilib keyin gapirishi kerakligi o'rgatiladi. Aytilgan so'z ortga qaytmasligi ta'kidlanadi:

**Eng: When the word is out it belongs to another.**

**Uzb: Aytilgan so'z – otilgan o'q.**

Darhaqiqat, til tig'i qilich tig'idan o'tkirroq ekanligi va qilichdan ko'ra inson tildan ko'proq jarohatlanishi mumkinligi barchamiz bilamiz. Shu sababli inson og'zidan chiqayotgan har bir so'zini ehtiyotkorlik bilan tashqariga chiqarishini tushunish unchalik qiyin emas degan umiddamiz:

**Eng: Words cut more than swords.**

**Uzb: Til tig'i qilich tig'idan o'tkir.**

Har ikki xalqda ham insonlar, xalq aytgan gap ollohning so'zlariga tenglashtirilib to'g'ri so'z sifatida qabul qilinadi:

**The voice of the people is the voice of God.**

**Xalq aytgani – haq aytgani.**

Ingliz xalqida xattoki rostini aytishga yetarlicha sabab bo'lsa ham baribir to'g'ri so'zni so'zlash o'rgatiladi. Chunki inson yolg'on bilan yashay olmasligi, baribir bir kunmas-bir kun uni oshkor bo'lishi mumkin:

**Speak the truth and shame the devil.**

Inson savol bermasa yolg'on ham eshitmaydi. Ingliz xalqi quyidagi maqolni ota-onasini ko'p savollar bilan qiynagan yosh bolalarga savol berishni to'xtatishi uchun ishlatishadi:

**Ask no questions and be told no lies.**

Ingliz xalqida yosh bolalarga gapirgan bilan gap kor qilmasligi, jismoniy jazo ularning ko'proq yodida qolishi mumkinligi ushbu maqolda tasvirlangan:

**Sticks and stones may break my bones, but words will never hurt me.**

Ingliz xalqida inson atrofida gilari u haqida nima deb o'ylashiga qaramasdan, e'tibor bermay faqat o'zi uchun yashashi kerakligi quyidagi maqolda tasvirlangan:

**He that has a great nose thinks everybody is speaking of it.**

O'zbek xalqida ayollarning hech qachon gapi tugamasligini ko'rsatish uchun ushbu maqol dunyoga kelgan. Chunki qo'shnisidan elak so'rab chiqqan ayolning gapi rostdan ham tugamaydi:

**Elakka borgan ayolning**

**Ellik og'iz gapi bor.**

O'zbek xalqi mehmondo'zligi bilan, milliy taomlari bilan dunyoga dovrug'i ketgan. Har bir oilada payshanba osh kuni sifatida an'anaga aylangan:

**Palov desang, payshanbaga,**

**Do'lma desang, dushanbaga.**

Faqatgina O'zbek xalqigagina mansub bo'lgan mahalla, qo'shnichilik rishtalari insonlarni axil va inoq bo'lib yashashga undaydi. Quyidagi maqol kishini qo'shnilari bilan yaxshi munosabatda bo'lishga undaydi:

**Ayrilmas qo'shningga uyatli so'z aytma.**

Xalqimizda elim deb, yurtim deb yonib yashash hissi qon-qoniga singib ketgan. El nima desa albatta hammaning manfaatini o'ylab qilinishi barchamizga ma'lum:

**El so'zi – dil so'zi.**

O'zbek xalqida rost so'z ulug'lanib mo'tabar hisoblanadi. Yaxshi so'z esa muxtasar, qisqa, lo'lda ekanligi ta'kidlanadi. Shu sababdan quyidagi maqol kishini rost va yaxshi so'zlar so'zlashga o'rgatadi:

**Chin so'z – mo'tabar,**

**Yaxshi so'z – muxtasar.**

Xullas, tasvirlanish jihatidan har ikkala xalqdagi maqollarning o'xshash jihatlari bir-biriga to'g'ri kelish bilan birga ma'lum bir xalqqa tegishli jihatlari ham kuzatiladi. Chunki har bir xalqning hayotida muhim o'rin tutadigan tasviriy ifodalar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Xulosa o'rnini shuni ta'kidlash joizki, Turli davrlar, turli yillarda to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga egadir. Bu to'plamlardagi faktik materiallar, asosan, bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi va mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Ingliz tilidagi maqollar to'plami haqida so'z yuritadigan bo'lsak, to'plamda maqollarning alifbo tartibida joylashtirilishi O'zbek tilidagi to'plamlarga o'xshashdir. Asosiy farq qiladigan tarafi shundaki, Ingliz tilidagi to'plamda maqollarning kelib chiqish tarixi ifodalangan. Undan tashqari, ularning ma'nolari tushuntirilgan va misollar yordamida muhokama qilingan. To'plam oxiridagi kalit so'zlar yordamida maqollarning raqamlangan katalog ro'yhati o'quvchiga kerakli so'zni darhol topishga juda qo'l keladi. Ingliz tilidagi to'plamlarning asosiy kamchiligi shundaki, ularda maqollar har xil tematik guruhlariga bo'linmagan.

O'zbek tilidagi to'plamlarning asosiy yutug'i bu tematik guruhlariga bo'linganligidadir. Kamchiliklarga to'xtaladigan bo'lsak, to'plamda Ingliz tilidagi kabi maqollarning kelib chiqish tarixi, ma'nolarining tushuntirilmaganligi va misollar yordamida yoritib berilmaganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

O'zbek tilidagi maqollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, asrdan-asrga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan maqollarimizning ma'no jihatdan naqadar yetukligiga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so'zning o'nlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalari uchratish mumkin.

Maqollarning tildagi boyligi va ma'nodorligini chek-chegarasi yo'q. Buni har ikkala taqqoslab-qiyoslanayotgan Ingliz va O'zbek tillarida ko'rishimiz mumkin. Maqollar inson hayotining har jabhasini, borlig'ini, madaniyati va tarixini o'zida aks ettiradi. Ular faqatgina xalq donoligini aks ettiribgina qolmasdan, insonni to'g'ri yo'lga boshlaydigan mezonlarni va yaxshi va yomon illatlarni tasvirlaydi.

Har bir xalq bilan yaqindan tanishmoq istagidagi har bir kishi o'sha xalqning bebaho maqollar dunyosiga nazar solishi shart. Chunki ko'pgina maqollar kishini ko'p narsaga undaydi: qanday to'g'ri yo'l tutish kerak va nimalardan inson o'zini uzoqroq tutishi kerak. Qilingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning ham maqollar xazinasida boshqa barcha xalqlarga to'g'ri keladigan universal maqollar anchagina. Negaki har bir til rivojlanish davri mobaynida boshqa tillardan o'z bazasini almashib boyitib boradi. Barcha xalqlarni yaqinlashtiradigan umumiy ma'no kasb etadigan maqollarning o'rni tengi yo'qdir. Faqatgina ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan maqollar har bir xalqning o'zgachaligini va bir-birini takrorlamasligini o'zi insonni boshqa xalqlar madaniyatini, turmush tarzini va tarixini o'rganishga undaydi.

### **III Bob. Ingliz va O'zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning lingvostatistik xususiyatlari**

#### **3.1 Lingvistik statistika: tushunchasi va yo'nalishlari**

P.U.Bakirov ta'kidlaganidek, statistika (lotincha: status – holat) fan sifatida har xil sohadagi ishlab chiqarish ko'rsatgichlari miqdorini o'rganadi va qayta ishlaydi. “ ” [Бакиров, 2006, С.151]. Darhaqiqat, matematik lingvistika fani statistik ma'lumotlardan ilmiy va amaliy xulosalar chiqaradigan fan hisoblanadi.

P.U.Bakirovning fikriga ko'ra, “Количественные методы, используемые в языкознании, т.е. методы подсчетов измерений при изучении языка и речи, называются статистическими, если они основываются на математической статистике.

Раздел лингвистики, использующей статистические методы при изучении, анализе и описании языковых явлений, называется лингвистической статистикой или лингвостатистикой.” [Бакиров, 2006, С.151]. Ko'rinib turibdiki, lingvistik statistika yoki lingvostatistika - bu til manbalarini statistik metod orqali o'rganishda, tahlil va tasniflashda foydalaniladigan tilshunoslikning bir bo'limidir.

P.U.Bakirov lingvistikada matematik statistika va ehtimollar nazariyasini faol qo'llash XX asrning 50-yillaridan boshlanadi deb ta'kidlaydi va lingvistikani shartli ravishda kvalitatif (an'anaviy, klassik tilshunoslik) va kvantitativ (matematik va tuzilmali lingvistika) turlarga bo'lishimiz mumkin.

An'anaviy tilshunoslik insoniyatning til haqidagi asosiy bilimlarini bunyod etdi. Shunday bo'lsa ham, u tilshunoslikning asosiy muammolariga yechim topishga ojizlik qildi, chunki muammolarning yechim topishi uchun klassik tadqiqot metodlarining yetishmas edi.

N.D.Andreyevning fikricha, “ни алгебра логики, ни теория множеств не дали структурной лингвистике искомого орудия, нужного ей для того, чтобы справиться с проведением границ между означающими, не опираясь на

означаемые. ...Отыскивая причину затруднений структурной лингвистики, равно как и причину того, почему ни алгебра логики, ни теория множеств не вывели ее из этих затруднений, мы находим пропущенное центральное звено в вероятностных свойствах языка. При всей важности теоретико-множественных (структурных) и алгоритмических (трансформационных) характеристик языковых единиц решающим оказались их статистические характеристики в речи” [Андреев, 1967. С.5]. Tuzilmali lingvistikaga anglanuvchini anglatuvchiga tayanmagan holda aniqlash uchun tilning ehtimollik belgilaridan aniqlash mumkin. Til belgilarining nazariy-ko’plik va algoritmik xususiyatlarini hal qiluvchisi bu nutqning statistik xususiyatlaridir.

P.U.Bakirov ta’kidlaydiki, “Таким образом, органически связанными оказываются понятия структуры языка, вероятностных свойств языковых единиц и их статистических характеристик в речи.” [Бакиров, 2006. С.152]. Darhaqiqat, tilning tuzilishi, til birliklarining ehtimollik belgilari va ularning nutqdagi statistik xususiyatlari bir-biri bilan uzviy bog’langan.

P.U.Bakirov lingvostatistikaning tilshunoslikning boshqa sohalari bilan bog’liqligi haqida shunday yozadi: “Количественные (статистические) методы в принципе могут применяться к самым различным объектам, их свойствам, особенностям их функционирования. Поэтому лингвостатистика связана с различными отраслями современной лингвистики и может использоваться при анализе единиц любого языкового уровня. В психолингвистике и социолингвистике статистические методы используются для обработки мнения информантов. Широко используют статистические методы исследования экспериментальная (инструментальная) фонетика. Совершенно необходимы статистические методы при составлении частотных словарей любого языка.” [Бакиров, 2006. С.153]. Statistik tadqiqot metodlari har xil obyektlarga, ularning belgilari va o’ziga xos xususiyatlarini aniqlashda foydalaniladi. Shuning uchun lingvostatistika zamonaviy tilshunoslikning har xil tarmoqlari bilan o’zaro bog’langan va istalgan til qatlamlari birliklarini tahlil



qilishda foydalanish mumkin. Masalan, psixolingvistikada, sotsiolingvistikada va eksperimental fonetikada statistik metodlar foydalaniladi.

Lingvosatistika harf va harf birikmalarini, tovush va tovush birikmalarini, morfemalar va ularning tarqalishini, leksemalar va ularning tarqalishini, so'zlarning leksik va sintaksik birikishini va hokazolarni tadqiqot qiladi deb ta'rif beradi P.U.Bakirov.

R.M.Frumkinaning fikricha, lingvostatistikaning boshlang'ich davrini asosiy uch yo'nalishga bo'lish mumkin:

“Направление 1. Получение разнообразных количественных сведений о языке и речи. Сюда мы относим подсчеты частот встречаемости любых элементов текста или устной речи, вне зависимости от целей подсчетов и методов их реализации. К этому направлению, как вам кажется, относится большая часть имеющихся публикаций.

Направление 2. Использование методов теории вероятностей для построения моделей различных фрагментов языка, речи, речевого поведения индивида.

Направление 3. Проведение статистической проверки гипотез.” [Фрумкина, 1973. С.167].

Birinchi yo'nalishda til va nutq haqida har xil miqdoriy ma'lumotlar olinadi. Bu yo'nalishda matnda yoki og'zaki nutqda kuzatiladigan istalgan elementlarning chastotasi hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalishda esa, individning nutqiy o'zini tutishi, nutqi va tilning turli qismlarini tuzishda ehtimollik metodlar nazariyasi foydalaniladi. Uchinchi yo'nalish haqida to'xtaladigan bo'lsak, ilmiy farazning statistik tekshirilishini o'tqazish hisoblanadi.

“в I направлении мы включили работы, описывающие соотношение между лингвистическими единицами в количественных терминах;

Во II – построение моделей фрагментов языка, речи и речевого поведения на основе методов теории вероятностей и, уже как следствие этого, математической статистики;

III направление вообще представляет совокупность исследований, объединенных методов, и притом таких методов, которые могут применяться в самых различных лингвистических исследованиях” [Фрумкина, 1973. С. 169]. Birinchi yo’nalishga lingvistik birliklarning qiymatli terminlardagi o’zaro bog’liqligini tasvirlovchi ilmiy ishlar kiritilgan. Ikkinchi yo’nalishga til qismlari, nutq va nutqiy o’zini tutish modellarini qurishda matematik statistikaning ehtimollar nazariyasi metodlari kiritilgan.

Qayd etib o’tish kerakki, maqollar nutqda tayyor til birliklari sifatida ishlatiladi, chunki ular har safar yangitdan tuzilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, maqollarni til birliklari sifatida va statistik metodlar yordamida ularning foydalanish chastotasini tadqiqot qilish mumkin.

Har xil turdagi tillardagi maqollarni qiyoslash tahlilida statistik metodning o’rni beqiyos hisoblanadi. P.U.Bakirov belgilab o’tganidek, “Статистические методы используются в различных отраслях языкознания, в том числе сравнительно-историческом и сопоставительно-типологическом. Количественные методы можно использовать при анализе языковых единиц любого уровня. Что касается номинацентрических пословиц, то лингвостатистика может анализировать их как готовые языковые единицы, в то же время статистические методы позволяют осуществить дистрибутивный анализ номинацентрических пословиц.” [Бакиров, 2006. С.156].

Muxtasar qilib aytadigan bo’lsak, lingvistik statistika yoki lingvostatistika - bu til manbalarini statistik metod orqali o’rganishda, tahlil va tasniflashda foydalaniladigan tilshunoslikning bir bo’limi hisoblanadi. Undan tashqari, lingvistik statistika tilshunoslikning turli jabhalarida foydalaniladi. Fikrimizning isboti sifatida qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik tilshunoslikni keltirib o’tsak bo’ladi. Darhaqiqat, tilning tuzilishi, til birliklarining ehtimollik belgilari va ularning nutqdagi statistik xususiyatlari bir-biri bilan uzviy bog’langan.

### **3.2 Ingliz va O’zbek tillaridagi “til va nutq” tematik guruhiga kiruvchi maqollarning lingvostatistik qiyoslash-taqqoslash analizi**

Xalqning Vatani, davlati kabi yana bir buyuk, birlamchi boyligi bu uning tilidir. Aynan til odamlar guruhini bir millat sifatida xalqni – xalq, miillatni – millat sifatida biriktiradi.

Avvalambor har bir tilni muhokama qiilayotganda uning soʻz xazinasiga eʼtibor berish kerak. Bu ishni amalga oshirishda biz izohli lugʻat toʻplamiga murojaat qilamiz. Hech bir lugʻat osha til soʻz boyligidagi soʻzlar haqida aniq bir maʼlumot bera olmaydi. Chunki hech bir lugʻat mukammal boʻlmaydi. Uning oʻziga xos kamchiliklari va kerakli oʻzgartirishlarga muhtojligi kuzatiladi. Maqollar toʻplamiga keladigan boʻlsak, hech bir toʻplam ideal shaklda emas. Har bir toʻplanning oʻxshash va farqli tomonlari bor. Ikki va undan ortiq tilni qiyoslashda maqollar toʻplamining oʻrni bebaho. Biz toʻplamdagi maqollar ichida har ikkala xalqqa ham xos universal maqollarni uchratibgina qolmasdan, maʼlum bir xalqqagina tegishli boʻlgan milliylik ruhi singgan maqollarni ham uchratishimiz tabiiydir.

P.U.Bakirovning yozishicha, “Номинацентрические пословицы сопоставляемых языков обнаруживают несомненное сходство, базирующееся на сходстве их грамматического строя, имеющее, возможно, универсальный характер. Это принципиальное сходство и представляет собой надежное основание для сопоставления номинацентрических пословиц в разных языках.” [Бакиров, 2006. С.222]. Darhaqiqat, qiyoslanayotgan tillardagi maqollarning Grammatik jihatdan bir-biriga oʻxshashligi ularga universal xarakter beradi. Aynan ushbu oʻxshashlik har xil tillardagi maqollarni taqqoslashda asosiy poydevor sifatida kasb etadi.

P.U.Bakirovning fikricha, “Объективную картину сходств и различий между сопоставляемыми языками может дать лишь сравнительно-типологическое статистическое исследование номинацентрических пословиц. Разумеется, структурные сходства и различия номинацентрических пословиц в разных языках отражают сходства и различия их грамматического строя.” [Бакиров, 2006. С.223]. Qiyoslanayotgan

tillardagi o'xshash va ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan farqli tomonlariga xolisona baho berib tahlil qilish faqatgina qiyosiy-tipologik tahlil oqibatida amalga oshirilishi mumkin.

Ingliz tilining lug'at boyligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Ingliz xalqining asrlar davomida to'plam tuzuvchilar tomonidan katta mashaqqat bilan qilgan mehnatiga nazarimiz tushadi. Lug'at tuzish tarixi Londonda Oksford universiteti olimlari (Richard Chenevix Trench, Herbert Coleridge va Frederick Furnivall) tomonidan 1888-yildan boshlangan. Lingvostatistik tadqiqot uchun asosiy manba sifatida olingan manba: The Second Edition of the 20-volume Oxford English Dictionary by John Simpson and Edmund Weiner. Oxford: Oxford University Press, 1989. – 21 730 p. Lug'at hozirgi kunda keng foydalanilayotgan 171 476 so'zni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda birinchi manba sifatida olingan maqollar to'plami 800 maqolni o'z ichiga oladi: English Proverbs Explained by Ronald Ridout & Clifford Witting. London: Pan Books Ltd., 1969. – 224 p.

Ushbu to'plamdagi maqollarning kamligini sabablari va asosiy farqli tomonlari:

- maqollar alifbo tartibida bo'lishiga qaramasdan to'plam oxirida kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning mavjudligi;
- maqollarning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotning borligi;
- maqollarning ma'nosiga ta'rif berilganligi;
- maqollarning talqin qilinishiga izoh berilishi;
- maqollarning tematik guruhlariga bo'linmaganligi;
- mazkur to'plam London shahrida nashrdan chiqqanligi;

Lingvostatistik tadqiqotda birinchi manba sifatida olingan to'plamda Ingliz tilidagi maqollar tildagi umumiy so'zlar qiymatini 0.0047% ni tashkil etadi.

Maqollar to'plamidagi “til” tematik mavzusidagi maqollar (12) umumiy to'plamning 0.015% ni tashkil etadi. Maqollar to'plamidagi “nutq” tematik mavzusidagi maqollar (30) umumiy to'plamning 0.038% ni tashkil etadi.

**Ingliz tilidagi izohli lug'at va "til va nutq" tematik guruhidagi maqollar**

Izohli lug'at nomi		Ingliz tilidagi umumiy so'zlar qiymati		Maqollarning tildagi umumiy foizi	
The Second Edition of the 20-volume Oxford English Dictionary		171476		0.0047%	
To'plam nomi	Maqollarning umummiy soni	"Til" tematik guruhidagi maqollar		"Nutq" tematik guruhidagi maqollar	
		Umumiy soni	Umumiy foizi	Umumiy soni	Umumiy foizi
English Proverbs Explained	800	12	0.015%	30	0.038%

Lingvostatistik tadqiqotda ikkinchi manba sifatida olingan alifbo tartibida joylashtirilgan maqollar to'plami Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi taxminan 2000 ga yaqin maqolni o'z ichiga olgan Proverbs – Maqollar – Пословицы / Tuzuvchilar Karamatova K., Karamatov H. Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.

Tadqiqotda ikkinchi manba sifatida olingan to'plamda Ingliz tilidagi maqollar tildagi umumiy so'zlar qiymatini 0.012% ni tashkil etadi. Maqollar to'plamidagi "til" tematik mavzusidagi maqollar (12) umumiy to'planning 0.006% ni tashkil etadi. Maqollar to'plamidagi "nutq" tematik mavzusidagi maqollar (98) umumiy to'planning 0.049% ni tashkil etadi.

Ushbu to'plamdagi maqollarning asosiy farqli tomonlari:

- maqollar alifbo tartibida bo'lishiga qaramasdan to'plam oxirida kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning yo'qligi;
- maqollarning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotning yo'qligi;
- maqollarning ma'nosiga ta'rif berilmaganligi;
- maqollarning talqin qilinishiga izoh berilmaganligi;

- maqollarning tematik guruhlarga bo'linmaganligi;
- maqollarning Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi ekvivalentlari borligi;
- mazkur to'plam Toshkent shahrida nashrdan chiqqanligi;

Jadval 3.2.

**Ingliz tilidagi izohli lug'at va "til va nutq" tematik guruhidagi maqollar**

Izohli lug'at nomi		Ingliz tilidagi umumiy so'zlar qiymati		Maqollarning tildagi umumiy foizi	
The Second Edition of the 20-volume Oxford English Dictionary		171476		0.012%	
To'plam nomi	Maqollarning umumiy soni	"Til" tematik guruhidagi maqollar		"Nutq" tematik guruhidagi maqollar	
		Umumiy soni	Umumiy foizi	Umumiy soni	Umumiy foizi
Proverbs – Maqollar – Пословицы	2000	98	0.006%	12	0.049%

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi 311-Qarori va unga ilova qilingan Dastur asosida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot instituti olimlari besh jildli izohli lug'atni tartib berishga kirishdi. O'n yildan oshiq davr mobaynida mashaqqatli mehnat qilindi. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2006-2008-yillar mobaynida besh jildli "O'zbek Tilining Izohli Lug'ati"ni nashr etdi (1-2-jildlar 2006, 3-jild 2007, 4-5-jildlar 2008-yili chiqdi). [[https://www.ziyouz.com/index.php?option=com\\_content&task=view&id=3836&Itemid=59](https://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=3836&Itemid=59)]. Barcha jildlar ham zahmatkash tilshunos Abdurahob Madvaliyev tahriri ostida chiqdi. Ushbu lug'at 80000 dan ortiq so'zni izohlaydi. Bir kun kelib o'zbek tilining mukammal izohli lug'ati tuziladigan bo'lsa, unga, albatta, shevalarimizga xos so'zlar ham, mumtoz adabiyotimiz va tarixiy matnlarda

saqlanib qolgan kalimalar ham kiritiladi va o'shanda lug'at boyligimiz 200 ming so'zdan ham oshib ketadi.

Lingvostatistik tadqiqotda uchinchi manba sifatida olingan to'plamda 70 tematik guruhga bo'lingan taxminan 10000 ga yaqin maqol mujassamlangan "O'zbek Xalq Maqollari" / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b. O'zbek tilidagi maqollar tildagi umumiy so'zlar qiymatini 0.125% ni tashkil etadi. Maqollar to'plamidagi "til" tematik mavzusidagi maqollar (136) umumiy to'plamning 0.0136% ni tashkil etadi. Maqollar to'plamidagi "nutq" tematik mavzusidagi maqollar (793) umumiy to'plamning 0.0793% ni tashkil etadi.

Ushbu to'plamdagi maqollarning asosiy farqli tomonlari:

- maqollar alifbo tartibida joylashtirilmaganligi;
- to'plam oxirida kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning yo'qligi;
- maqollarning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotning yo'qligi;
- maqollarning ma'nosiga ta'rif berilmaganligi;
- maqollarning talqin qilinishiga izoh berilmaganligi;
- maqollarning tematik guruhlarga bo'linganligi;

Jadval 3.3.

**O'zbek tilidagi izohli lug'at va "til va nutq" tematik guruhidagi maqollar**

Izohli lug'at nomi		O'zbek tilidagi umumiy so'zlar qiymati		Maqollarning tildagi umumiy foizi	
O'zbek Tilining Izohli Lug'ati		80000		0.125%	
To'plam nomi	Maqollarning umummiy soni	"Til" tematik guruhidagi maqollar		"Nutq" tematik guruhidagi maqollar	
		Umumiy soni	Umumiy foizi	Umumiy soni	Umumiy foizi
O'zbek Xalq	10000	136	0.0136%	793	0.0793%

Maqollari					
-----------	--	--	--	--	--

Biz to'plamlardagi maqollar ichida har ikkala xalqqa ham xos universal maqollarni uchratibgina qolmasdan, ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan milliylik ruhi singgan maqollarni ham uchratdik. Lingvostatistik tadqiqot oqibatida Ingliz va O'zbek xalq maqollar to'plamining o'xshash va farqli jihatlari ma'lum bo'ldi. Ingliz tilidagi to'plamda kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning borligi asosiy afzalligidir. O'zbek tilidagi to'plamda esa maqollar tematik guruhlariga bo'linganligi asosiy yutug'idir.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Qiyoslanayotgan tillardagi o'xshash va ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan farqli tomonlariga xolisona baho berib tahlil qilish faqatgina qiyosiy-tipologik tahlil oqibatida amalga oshirilishi mumkin. Hech bir to'plam o'sha til maqollar xazinasi haqida aniq bir ma'lumot bera olmaydi. Chunki hech bir to'plam mukammal bo'lmaydi. Uning o'ziga xos kamchiliklari va kerakli o'zgartirishlarga muhtojligi kuzatiladi.

Tadqiqotda birinchi manba sifatida olingan Ingliz tilidagi to'plam(English Proverbs Explained)ning asosiy farqi va afzalliklari shundaki, maqollarning alifbo tartibida bo'lishiga qaramasdan to'plam oxirida kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning mavjudligi foydalanuvchiga ma'lum so'zli maqolni tezda qiyinchiliklarsiz topishga yordam beradi. Undan tashqari, to'plamda maqollarning kelib chiqish tarixiga e'tibor qaratilib keltirib o'tilganligi to'plamning katta bir yutug'idir. Keying afzallik shundaki, ularning ma'nosiga ta'rif berilganligi va qanday talqin qilinishiga izoh berilishi foydalanuvchiga tengsiz qulaylik keltirib chiqaradi. Kamchiliklar borasida to'xtaladigan bo'lsak, asosiysi shuki,



maqollarning tematik guruhlarga bo'linmaganligi foydalanuvchiga ma'lum tematik guruhdagi maqollarni topishda biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Tadqiqotda ikkinchi manba sifatida olingan Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi to'plam(Proverbs – Maqollar – Пословицы)ning asosiy farqi shundaki, maqollarning alifbo tartibida joylashtirilganligi. Shunga qaramasdan, to'plam oxirida kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning yo'qligi foydalanuvchiga faqatgina kerakli so'z qatnashgan maqolni tezda topishda biroz qiyinchilik tug'diradi. Undan tashqari, to'plamda maqollarning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot yo'qligi, ularning ma'nosiga ta'rif berilmaganligi va qanday talqin qilinishiga izohning yo'qligi London shahrida nashriyotdan chiqqan (English Proverbs Explained)to'plamidan tubdan farq qiladi. Maqollarning tematik guruhlarga bo'linmaganligi (O'zbek tilidagi O'zbek Xalq Maqollarida tematik guruhlarga bo'lingan) foydalanuvchiga ma'lum tematik guruhdagi maqollarni topishda biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ushbu to'plamda maqollarning Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi ekvivalentlarining keltirib o'tilganligi to'plamning asosiy yutug'idir.

Tadqiqotda uchinchi manba sifatida olingan O'zbek tilidagi to'plam(O'zbek Xalq Maqollari)ning asosiy farqi shundaki, maqollarning alifbo tartibida joylashtirilmaganligi, to'plam oxirida kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning yo'qligi foydalanuvchiga ma'lum bir so'zli maqolni tezda topishga biroz qiyinchilik tug'diradi. Undan tashqari, to'plamda maqollarning kelib chiqish tarixi, ularning ma'nosiga ta'rifning yo'qligi va qanday talqin qilinishi haqida izoh berilmaganligi to'plamning mukammal emasligidan darak beradi. Afzalliklar borasida to'xtaladigan bo'lsak, asosiysi shuki, maqollarning tematik guruhlarga bo'linganligi foydalanuvchiga ma'lum tematik guruhdagi maqollarni topishda tengsiz qulaylik keltirib chiqaradi. Lekin biz bir tematik guruhdagi maqolni boshqa bir guruhda ham ko'rishimiz mumkin. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, hech bir maqollar to'plami ideal emas, har birining yaxshi va yomon tomonlari bor. Shuning uchun lingvistik tadqiqot paytida faqat bir to'plamga bog'lanib qolish to'g'ri emas.

## Umumiy xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy ma'naviyatga qanchalik yuqori baho berilayotganidan, madaniy merosimizga e'tibor keskin ijobiy tomonga o'zgardi. Har bir inson xalq og'zaki poetik ijodiga shunchaki dam olish, hordiq chiqarish ob'ekti sifatida emas, xalqning Miliy ruhi aks etgan tarixiy hujjat sifatida munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirmog'i lozim. Bu esa, har bir yosh avlodga o'zbek xalq og'zaki poetik ijodini mutaxassis sifatida mukammal o'rganish mas'uliyatini yuklaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bir tarafdin zamonaviy tilshunoslikdagi "Ingliz va O'zbek tillaridagi "til va nutq" tematik guruhiga oid maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlari" ni o'rganishga qiziqish bo'lsa, ikkinchi tarafdin, uning mukammal darajada o'rganilmaganligidir. Ushbu mavzuni o'rganishdagi ko'rib chiqilgan savollar mavzuni ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan tadqiqot etishga qaratilgan.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lgan maqollarda ajdodlarning xayotiy tajribalari, orzu-intilishlari, davlat va jamiyatga munosabati, tarixiy-ruhiy xolati, falsafiy, etnik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan bo'ladi. Maqollar asrlar mobaynida sayqallanib, ixcham, lo'nda va sodda poetik shaklga kelgan. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir.

P.U.Bakirovning fikricha, "Пословице (как специфическому виду паремий) присущи следующие свойства: 1) народность, 2) древность происхождения и актуальность, 3) метафоричность, 4) аллегоричность, 5) многозначность о обобщающий характер, 6) сентенциозность (нравоучительность), 7) образность, поэтичность, 8) эмоциональная насыщенность, 9) краткость, лаконичность, 10) структурно-семантическая законченность.

Основываясь на этих свойствах, мы предлагаем следующие определение пословицы: <Пословица – это структурно и семантически законченное лаконичное народное изречение в клишированной парадигматической форме, имеющее образно-поэтический, аллегорический и назидательный характер>” [Бакиров, 2006, С.27].

O'zbek Xalq Maqol va Matallarida keltirib o'tilishicha, “Каждый народ спрессовывает в пословицы свой собственный опыт, но как часто он совпадает с опытом других народов. Оттого и получается иной раз, что разноязычные пословицы кажутся прямо-таки скалькированными друг с друга” [Узбекские народные пословицы и поговорки, 1985. С.83].

G.L.Permjakovning fikricha, “Сходные пословицы и поговорки, независимо от их языкового материала, представляют собой образные варианты неких типических ситуаций, а эти типические ситуации по отношению к конкретным пословицам являются инвариантами” [Пермяков, 1970. С.20].

Dissertatsiyaning birinchi bobida maqollarda mehnatkash xalq donoligi, milliylik ruhi, uzoq asrlik hayot tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari haqidagi fikri, bahosi, mehnat natijalari mujassamlashtirilgan. Maqollar yillar, asrlar davomida insonlarning aqli, kuzatuvchanligi, atrof-muhitga bo'lgan e'tibori, aql-farosati, ko'p asrlik hayotiy tajribasi va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Maqollardagi ikkiplanlilik inson uchun milliy va umuminsoniylik uyg'unligi ko'rinishida ma'no anglatadi desak mubolag'a bo'lmas degan umiddamiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida quyidagi tadqiqot amalga oshirilib kerakli xulosalar chiqarilgan. Tillardagi o'xshash va ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan farqli tomonlariga xolisona baho berib tahlil qilish faqatgina qiyosiy-tipologik tahlil oqibatida amalga oshirilishi mumkin. Har bir xalq bilan yaqindan tanishmoq istagidagi har bir kishi o'sha xalqning bebaho maqollar dunyosiga nazar solishi shart. Ko'pgina maqollar kishini ko'p narsaga undaydi: qanday to'g'ri yo'l tutish kerak va nimalardan inson o'zini uzoqroq tutishi kerak. Qilingan tahlillar

shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning ham maqollar xazinasida boshqa barcha xalqlarga to'g'ri keladigan universal maqollar anchagina. Negaki har bir til rivojlanish davri mobaynida boshqa tillardan o'z bazasini almashib boyitib boradi. Barcha xalqlarni yaqinlashtiradigan umumiy ma'no kasb etadigan maqollarning o'rni tengi yo'qdir. Faqatgina ma'lum bir xalqqagina tegishli bo'lgan maqollar har bir xalqning o'zgachaligini va bir-birini takrorlamasligini o'zi insonni boshqa xalqlar madaniyatini, turmush tarzini va tarixini o'rganishga undaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida quyidagi tadqiqotlar amalga oshirilib kerakli xulosalar chiqarilgan. Lingvostatistik tadqiqot oqibatida Ingliz va O'zbek xalq maqollar to'plamining o'xshash va farqli jihatlari ma'lum bo'ldi. Ushbu ilmiy ishda uchta asosiy tadqiqot manbalari poydevor qilib olingan: Birinchisida Ingliz tilida alifbo tartibida joylashtirilgan 800 maqolni ma'nosi, kelib chiqish tarixi va ularning talqinini o'z ichiga olgan *English Proverbs Explained* to'plamidir. Ikkinchisida alifbo tartibida joylashtirilgan Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi taxminan 2000 ga yaqin maqolni o'z ichiga olgan *Proverbs – Maqollar – Пословицы* to'plamidir. Uchinchisida 70 tematik guruhga bo'lingan taxminan 10000 ga yaqin maqolni o'zida mujassamlashtirgan "O'zbek xalq maqollari" to'plamidir.

Birinchi to'plam(*English Proverbs Explained*)ning farqli tomoni maqollarning tematik guruhlariga bo'linmaganligi va to'plamdagi maqollar umumiy sonining kamligi. Afzalliklari esa har bir maqolni ma'nosi, kelib chiqish tarixi va ularning talqini keltirilganligidir.

Ikkinchi to'plam(*Proverbs – Maqollar – Пословицы*)ning farqli tomoni London shahrida nashrdan chiqqan birinchi to'plam(*English Proverbs Explained*)dan farqi kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning yo'qligi, ma'nosi, kelib chiqish tarixi va ularning talqini keltirilmaganligidadir. Undan tashqari, maqollarning tematik guruhlariga bo'linmaganli foydalanuvchiga biroz qiyinchilik tug'diradi. Lekin ushbu to'plamda maqollarning Ingliz, O'zbek va Rus tillaridagi ekvivalentlarining keltirilganligi to'plamning asosiy yutug'i hisoblanadi.

Uchinchi to'plam(O'zbek Xalq Maqollari)ning farqli tomonlari maqollarning alifbo tartibida joylashtirilmaganligi, kalit so'zlardan iborat bibliografiyaning yo'qligi, kelib chiqish tarixi, ma'nosi va qanday talqin qilinishi haqida izoh berilmaganligidir. Ammo asosiysi shuki, maqollarning tematik guruhlariga bo'linganligi foydalanuvchiga ma'lum tematik guruhdagi maqollarni topishda tengsiz qulaylik keltirib chiqaradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, hech bir to'plam o'sha til maqollar xazinasini haqida aniq bir ma'lumot bera olmaydi. Chunki hech bir to'plam mukammal bo'lmaydi. Uning o'ziga xos kamchiliklari va kerakli o'zgartirishlarga muhtojligi kuzatiladi. Shu sababli lingvistik tadqiqot paytida faqat bir to'plamga bog'lanib qolish to'g'ri emas.

Ilmiy ishdan maqsad Ingliz va O'zbek tillaridagi maqollarga "til va nutq" tematik guruhini berish edi. Undan tashqari, maqollarning semantik va lingvostatistik xususiyatlarini o'rganib o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish edi. Mazkur ilmiy ishni davomi sifatida kelgusida Ingliz xalq maqollari to'plamiga ma'lum bir tematik guruhlar berish kelajakdagi buyuk maqsadlarimizdan biridir.

Xullas, maqollar haqida har qancha so'z yuritsak ham, har qancha ilmiy ishlar qilsak ham ularning to'liq ma'no mazmunini ochib berish juda qiyin. Chunki ularni har qancha o'rgansak ham kamdir. Hech bir maqol boshqasining o'rnini bosa olmaydi. Chunki bu ma'nolar maxzanining har bir satrini o'rni o'zgacha. Ular bir-birini takrorlamaydi, aksincha, bir-birini ma'nosini to'dirib, boyitib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Dundes A. On the structure of the Proverb, in Mieder, W. & A. Dundes. The Wisdom of many: Essays of the Proverb. Madison, Wisconsin: University of Wisconsin Press. 1994. p. 45 – 52.
2. English Proverbs Explained by Ronald Ridout & Clifford Witting. London: Pan Books Ltd., 1969. – 224 p.
3. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Tom 6. 1997.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Tom 7. 1998.
5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Tom 8. 1999.
6. Mieder V. Twisted Wisdom, Modern Anti Proverbs. – Vermont, 1998. – 396 p.
7. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
8. Proverbs – Maqollar – Пословицы / Tuzuvchilar Karamatova K. M., Karamatov H. S. Toshkent: Mehnat, 2000. – 400 b.
9. O'zbek xalq maqollari / Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. Toshkent: Sharq, 2005. – 512 b.
10. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – 448 b.
11. Алибекова К. Здоровье человека в зеркале русских и узбекских пословиц // Преподавание языка и литературы. 2005. №2. С. 26 – 31.
12. Андреев Н. Д. Статистико-комбинаторные методы в теоретическом и прикладном языкознании. М.: Наука, Ленингр. отд., 1967. – 403 с.
13. Аникин В.П. Пословицы и поговорки народов Востока, 1961. С.12
14. Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество – Л.: Просвещение, 1983.
15. Аракин В. Д. Сравнительная типология английского и русского языков. Л.: Просвещение, 1979. – 259 с.

16. Ахметжанова З. К. Принципы сопоставительного функционального исследования казахского и русского языков: Автореф. дис.... докт. филол. наук. Алма-Ата, 1989. – 46 с.
17. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). Т.: Фан, 2006. – 298 с.
18. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс. (автореф. дисс) ... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007.
19. Бегмурадов И. Узбекско-казахские фольклорные связи: Автореф. дис....канд. филол. наук. Ташкент, 1990. – 21 с.
20. Большой энциклопедический словарь (БЭС) / Гл. ред. Ярцева В.Н. М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. – 668 с.
21. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М.: Высшая школа, 1983. – 267 с.
22. Вместе – рекой быть, врозь – ручейками: Узбекские пословицы и поговорки / Пер. Гацунаева Н.: Послесл. Владимировой Н., Саримсакова Б. Ташкент: Изд. лит. и искусства, 1988. – 224 с.
23. Вода – это жизнь. Узбекские пословицы, поговорки, загадки, песни, легенды, приметы, обычаи, ритуалы, высказывания мудрецов Востока. Ташкент: Изд. лит. и искусства, 1980. – 181 с.
24. Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. М.: Просвещение, 1989. – 254 с.
25. Гварджалидзе И. С. , и др. 500 английских пословиц и поговорок. М.: ИЛ, 1960. – 32с.
26. Гварджалидзе И. С. , Мchedlishvili Д. И. Английские пословицы и поговорки: Практическое пособие для лиц, изучающих английский язык. М.: Высшая школа, 1971. – 77с.
27. Даль В. И. Пословицы русского народа: Сборник в 2х т. М.: Художественная литература, 1984. Т.І. – 383 с.; 1984.Т.ІІ. – 399 с.

28. Даль В. И. Пословицы русского народа. М.: Изд. Астрель, АСТ, 2000. – 752 с.
29. Джусупов М., Алибекова К., Мажитаева Ш. Специальная лексика и пословицы (лингвоконтрастивные и методические аспекты). Т.: Изд. Meriyus, 2013. – 139 с.
30. Доржиева Э. Д. Этическая оценка в пословицах современного английского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 2003. – 16 с.
31. Жемчужины мысли народной. Афоризмы. Изречения. Пословицы. Ташкент: Ёш гвардия, 1972. – 208 с.
32. Здоровье в руках человека (Пословицы, поговорки и афоризмы разных народов) / Сост. и авт. предисл. Захаров В. И. и Жунгиету Е. В. Кишинев: Штиинца, 1972. – 292 с.
33. Иванова Е. В. Пословичная концептуализация мира (на материале английских и русских пословиц): Автореф. дис....докт. филол. наук. СПб., 2003. – 38 с.
34. Калонтаров Я. И. Таджикские пословицы, поговорки в сравнении с узбекскими (на таджикском, узбекском, русском языках). Душанбе: Дониш, 1969. – 435 с.
35. Калонтаров Я. И. Мудрость трёх народов (таджикские, узбекские, русские пословицы, поговорки и афоризмы в аналогии). Душанбе: Адиб, 1989. – 430 с.
36. Каримова Б. А. Паремийная единица в словарном ракурсе (на материале толковых словарей русского и английского языков): Автореф. дис....канд. филол. наук. Ташкент, 2003. – 21 с.
37. Крикманн А. А. Некоторые аспекты семантической неопределенности пословицы // Паремиологические исследования. М.: ИВЛ, 1978. – 104 с.
38. Крикманн А. А. Опыт объяснения некоторых семантических механизмов пословицы // Паремиологический сборник. М.: ИВЛ, 1984. – 179 с.



39. Кузьмин С. С., Щадрин Н. Л. Русско-английский словарь пословиц и поговорок. М.: Русский язык. 1989. – 352 с.
40. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М.: Высшая школа. 1996. – 200 с.
41. Латыпова Р. А. Нормы речевого поведения в зеркале английской и башкирской паремии: Автореф. дис....канд. филол. наук. Уфа, 2003. – 17 с.
42. Манакин В. Н. Сопоставительная лексикология. Киев: Знания, 2004. – 326 с.
43. Математическая лингвистика / Пиотровский Р. Г., Бектаев К.Б., Пиотровская А. А. М.: Высшая школа, 1977. – 383 с.
44. Медникова Э. М. Значение слова и методы его описания. М.: Высшая школа, 1974. – 202 с.
45. Мелкое слово. Современные пословицы, поговорки, изречения / Собр. и обр. Кнып В. – Ташкент: Кизил Узбекистон; Правда Востока; Узбекистон сурх, 1959. – 110 с.
46. Остроумов Н. П. Пословицы и поговорки населения Туркестанского края // Сб. материалов для статистики Сырдарьинского статистического комитета. Ташкент, 1891. С. 3 – 67.
47. Паремиологический сборник. Пословица. Загадка (Структура, смысл, текст). М.: ИВЛ, 1978. – 318 с.
48. Паремиологические исследования: Сб. статей. М.: ИВЛ, 1984. – 320 с.
49. Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). М.: Главная редакция восточной литературы издательства <Наука>, 1970. – 240 с.
50. Пермяков Г. Л. Пословицы и поговорки народов Востока. М.: ИВЛ, 1979. – 671 с.
51. Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. М.: Наука, 1988. – 311 с.

52. Пословицы и поговорки на русском, латинском, французском, английском и немецком языках. Кемерово: МП РСФСР. Кемеров. гос. пед. ин-т, 1969. – 102 с.
53. Пословицы и поговорки народов Востока / Сост. Брегель Ю. Э. М.: ИВЛ, 1961. – 76 с.
54. Потебня А. А. Из лекций по теории словесности. Басня. Пословицы. Поговорки. Харьков, 1930.
55. Потебня А. А. Эстетика и поэтика. М.: Искусство, 1976. – 614 с.
56. Рождественский Ю. В. О правилах ведения речи по данным пословиц и поговорок // Паремнологический сборник. М.: ИВЛ, 1978. С. 211 – 229.
57. Рустамов А. Суз хусусида суз. Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 167 с.
58. Садриддинова М. З. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Дис....канд. филол. наук. Ташкент, 1984. – 128 с.
59. Соатов Б. А. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекских народных пословиц: Дис....канд. филол. наук. Ташкент, 1990. – 146 с.
60. Соатов Б. А. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис....канд. филол. наук. Ташкент, 1990. – 20 с.
61. Содикова М. Краткий узбекско-русский словарь пословиц и поговорок // Қискача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 78 с.
62. Фрумкина Р. М. Роль статистических методов в современных лингвистических исследованиях // Математическая лингвистика. М.: Наука, 1973. 183 с.
63. Хошимов Г. М. Типология сложного предложения в разносистемных языках: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Ташкент, 2002. – 46 с.
64. Узбекские народные пословицы и поговорки / Пер. и сост Наумов А. Ташкент: Узбекистан, 1985. – 93 с.

65. Чернелев В. Д. Русские пословицы в сравнительном аспекте: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 1991. – 16 с.
66. Шайкевич А. Я. Дистрибутивно-статистический анализ в семантике // Принципы и методы семантических исследований. М.: Наука, 1976. С. 353 – 378.
67. Шарафиддинов Х. Рифма и ее функционально-стилистические особенности в структуре узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1986. – 21 с.
68. Ўзбек халқ мақоллари (2 томлик) / (Масъул мухаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоков Б.). – Тошкент: Фан, 1987, Т. I. – 368 бетлар; 1988. Т. II. – 373 бетлар.
69. Қанотли сўзлар: Мақоллар, маталлар, ҳикматли сўзлар / Тўплаб нашрга тайёрловчи Сиддиқов Э. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – 256 бетлар.

#### **Internet resurslari:**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/maqol>